1-mavzu. Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda qo‘llash

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Reja:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun.
2. Davlat ta’lim standarti va talablari. O‘qituvchi kasb standarti.
3. “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da maktab ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar.
4. Mehnat kodeksi asosida yuritiladigan ish hujjatlari.

1. Ta’lim tizimining asosiy hujjati.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

Qonun ta’lim tizimining barcha ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Ta’limning barcha turlari maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta’limni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sifatini ta’minlash. Qonun ta’limning sifatini nazorat qilish va yaxshilash mexanizmlarini belgilaydi.

4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar.

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;

ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

2. Davlat ta’lim standarti va talablari.

O‘qituvchilarning ta’lim bosqichlarida jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan bilimlarni egallashi va amalga oshirishi bilan yuzaga chiqadi. Maktab ta’limini shakllantiruvchi va me’yorga ketiruvchi vositalariga umumiy, o‘rta ta’limi bo‘yicha ixtisoslikka yo‘naltiruvchi mutaxassislik, Davlat ta’lim standarti va o‘quv rejasi, fan dasturi va darsliklari kiradi. Davlat ta’lim standarti o‘quvchilarning egallashi mumkin bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va muhokamalarning chegaralarini, kasbiy omilkorlikni hamda jamiyatning rivojiga hamda bilimlarni egallashga yordam beradigan fanlarni belgilab beradi, DTS tarkibiga kiruvchi o‘quv rejasida aks ettiradi. Fan dasturi zarur bo‘lgan fanlar bo‘yicha bilimlarning asoslari va chegarasini ko‘rsatadi.

Davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

Davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

O‘qitish natijalari — o‘quv jarayonining ma’lum bosqichi yakuni bo‘yicha ta’lim oluvchi baholanadigan kompetensiyalar.

Ta’lim standartlari ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini tashkil etish va baholash uchun asos hisoblanadi.

Ta’lim standartlarining maqsadi — ta’lim va o‘qitish sifatiga, ta’lim mazmuniga, ta’lim oluvchilar hamda ularning tayyorgarlik darajasiga, ta’lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o‘quv yuklamasi va faoliyati hajmiga va baholash mexanizmlariga qo‘yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

Ta’lim standartlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta’limning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

ta’limning turlari, mazmuni, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, ta’lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;

o‘qitish natijalarini baholash tartibi, ta’lim va tarbiya sifatini nazorat qilishni takomillashtirish;

ta’lim turlari, bosqichlarining o‘zaro uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;

milliy standartlar talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Ta’lim standartlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat, jamiyat, mehnat bozori va shaxs ehtiyojlariga mosligi;

ta’lim va tarbiyaning yaxlitligi, barcha uchun teng va kafolatlanganligi;

ta’lim turlari va bosqichlari o‘rtasida uzluksizlik va ta’lim mazmuni uzviyligining ta’minlanganligi;

gender tenglik va inklyuziv ta’lim olish huquqlarining ta’minlanganligi;

ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilganligi va ta’lim oluvchilar shaxsi, ularning intilishlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlarining inobatga olinganligi;

O‘zbekiston ta’lim siyosatini hisobga olgan holda xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasidagi tajribalaridan foydalanilganligi.

Ta’lim standartlarini ishlab chiqishga qo‘yiladigan asosiy talablar:

madaniy va tarixiy meros an’analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat talablari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olish;

ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, vatanga fidoyilik va milliy g‘urur hissini singdirish hamda o‘z majburiyatlarini mas’uliyat bilan bajarish bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish;

ta’lim oluvchilar ongiga Vatan tuyg‘usini singdirish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

ta’lim oluvchilarning o‘qitish natijalariga aniq talablarni belgilash hamda uning me’yorlari va talablari buzilishining oldini olish;

ta’lim oluvchilarda atrof muhitni asrab-avaylash va muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ta’lim turlari va bosqichlarini xalqaro miqyosda tan olingan mezonlar bo‘yicha ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;

ta’lim oluvchilarning qobiliyat va ehtiyojlari asosida individual rivojlanish hamda differensial yondashuv asosida ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish;

variativ va invariativ komponentlarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini tizimlashtirish;

mehnat bozori talablariga muvofiq kadrlarni tayyorlashda xalqaro tajribani inobatga olish.

Ta’lim turlari bo‘yicha quyidagi ta’lim standartlari ishlab chiqiladi:

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning *davlat standarti*;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’limning ***davlat ta’lim standartlari*;**

oliy ta’limdan keyingi ta’limning, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning, shuningdek maktabdan tashqari ta’limning ***davlat ta’lim talablari*.**

Ta’lim turlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ta’lim sohasidagi xalqaro standartlar talablariga moslashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim bosqichlari YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011)”— Xalqaro tasniflagich darajalari bilan muvofiqligi ta’minlanadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti Xalqaro tasniflagichning 0-darajasidagi (kichik yoshdagi bolalar ta’limi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Ushbu standart erta kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va emotsional kabi shakllanishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar yagona shaklda ishlab chiqilishi, bolalarni boshlang‘ich ta’limga qabul qilish hamda akademik tayyorlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti Xalqaro tasniflagichning 1-darajasidagi (boshlang‘ich ta’lim) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi va I — IV sinflarni qamrab oladi.

Mazkur standart o‘qish, yozish, asosiy matematik ko‘nikmalar (savodxonlik va hisoblash), shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalarini o‘rganish va tushunish uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratiladi.

Tayanch o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti Xalqaro tasniflagichning 2-darajasidagi (o‘rta ta’limning birinchi bosqichi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi va V — IX sinflarni qamrab oladi. Tayanch o‘rta ta’lim bitiruvchilari (IX sinf) O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 2-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Tayanch o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti boshlang‘ich ta’lim natijalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Ushbu standart hayot davomida ta’lim olish va inson kapitalini rivojlantirish poydevorini yaratish, umumta’lim fanlari bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratiladi.

O‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlari Xalqaro tasniflagichning 3-darajasidagi (o‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. Mazkur bosqichning davlat ta’lim standartlari tayanch o‘rta ta’lim bosqichi natijalariga asoslanadi.

O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim bosqichi bitiruvchilari (XI sinf) O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Bunda o‘rta ta’lim bosqichida umumta’lim fanlariga ustuvorlik berilgan holda qisqa muddatli kasbga tayyorlash dasturlari ham o‘qitiladi.

Boshlang‘ich professional ta’limning davlat ta’lim standarti Xalqaro tasniflagichning 3-darajasidagi (o‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi) belgilangan

talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. Tayanch o‘rta ta’limning IX sinflari bitiruvchilarini qamrab oladi.

Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichi bitiruvchilari (XI sinf) O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Boshlang‘ich professional ta’limning davlat ta’lim standarti tayanch o‘rta ta’lim natijalarini hisobga olgan holda, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi hamda umumta’lim fanlari bilan birga Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasiga tegishli bo‘lgan kasblar bo‘yicha o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim bosqichlari va YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011)” darajalari o‘rtasidagi muvofiqlik jadvali

ISCED-2011 darajalari	ISCED-2011 ta’lim dasturlari	O‘zbekiston Respublikasining ta’lim bosqichlari
0	Kichik yoshdagi bolalar ta’limi	Maktabgacha ta’lim va tarbiya
1	Boshlang‘ich ta’lim	Boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar)
2	O‘rta ta’limning birinchi bosqichi	Tayanch o‘rta ta’lim (V — IX sinflar)
3	O‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi	O‘rta ta’lim (X — XI sinflar) O‘rta maxsus ta’lim Boshlang‘ich professional ta’lim
4	Umumiy o‘rta ta’limdan keyingi ta’lim	O‘rta professional ta’lim
5	Oliy ta’limning qisqa sikli	O‘rta maxsus professional ta’lim
6	Bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan	Bakalavriat
7	Magistratura yoki unga tenglashtirilgan	Magistratura
8	Doktorlik tadqiqotlari yoki unga tenglashtirilgan	Oliy ta’limdan keyingi ta’lim: tayanch doktorantura (Doctor of Philosophy) (PhD); doktorantura (Doctor of Science) (DSc).
9	Tasniflanmaydi	Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta’lim

5-slayd “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini tartibga soluvchi muhim hujjatdir. Ushbu qonun ta’limning barcha darajalari, uning mazmuni, prinsiplari va tashkil etilishi haqida ma’lumot beradi. Qonun ta’lim sohasidagi davlat siyosatini belgilaydi va ta’lim muassasalarining faoliyatini tartibga soladi.

Qonunda quyidagi asosiy jihatlar ko‘rsatilgan:

1. Ta’limning maqsadi: Ta’limning asosiy maqsadi – shaxsning intellektual, ruhiy, jismoniy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash.

2. Ta’lim tizimi: Ta’lim tizimining strukturasini belgilaydi, jumladan, umumiy ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’lim darajalari.

3. Ta’lim prinsiplari: Ta’lim jarayonida erkinlik, tenglik, sifat va barqarorlik kabi asosiy prinsiplarga amal qilinishi kerak.

4. O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari: O‘qituvchilarning malaka oshirish va ta’lim muassasalarining faoliyatini tartibga solish masalalari.

5. Davlatning roli: Davlat ta’lim sohasida nazorat va qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini bajaradi.

Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish va ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

6-slayd. O‘zbekiston Respublikasi 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishi, mamlakatning ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan strategik qaroridir. Ushbu tashabbus bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ekologik ta’lim: O‘zbekistonning ta’lim tizimida ekologik bilimlarni oshirish, yosh avlodni atrof-muhitni asrashga jalb etish.

2. Yashil iqtisodiyot: Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

3. Tabiatni muhofaza qilish: Tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, suv va havo sifatini yaxshilash, biologik xilma-xillikni saqlash.

4. Ijtimoiy mas’uliyat: Jamiyatda ekologik mas’uliyatni oshirish, fuqarolarni atrof-muhitni asrashga undash.

5. Xalqaro hamkorlik: Global ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu tashabbus O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlari, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

7-slayd. O‘qituvchilar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi o‘qituvchining ish joyi, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi muhim hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga va ta'lim sohasidagi qonunlarga asoslanib, o‘qituvchilar bilan tuziladigan mehnat shartnomasining mazmuni va shartlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shartnoma tomonlari
   - Ish beruvchi: Ta'lim muassasasi (maktab, universitet va h.k.).
   - Ishchi: O‘qituvchi.
2. Shartnoma muddati

• Shartnoma belgilangan muddatga (masalan, bir yil) yoki muddatdan tashqari (doimiy) tuzilishi mumkin.

3. Ish joyi

• O‘qituvchining ish joyi aniq ko‘rsatilishi kerak (masalan, muayyan maktab yoki fakultet).

4. Vazifalar va majburiyatlar

• O‘qituvchining asosiy vazifalari (dars o‘tkazish, o‘quvchilarga bilim berish, darsdan tashqari faoliyatlar, baholash va h.k.) belgilanishi zarur.

• O‘qituvchi o‘z vazifalarini bajarishda ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi lozim.

5. Ish vaqti

• Ish vaqti va dars jadvali ko‘rsatiladi. Odatda, o‘qituvchilar uchun ish vaqti haftasiga 36-40 soatni tashkil etadi.

6. Ish haqi

• O‘qituvchining ish haqi miqdori, to‘lov tartibi va muddatlari ko‘rsatiladi. Minimal ish haqi va qo‘shimcha to‘lovlar (masalan, darsdan tashqari ishlar uchun) ham belgilanishi kerak.

7. Ta'til va dam olish

• O‘qituvchining ta'til huquqlari (yozgi ta'til, kasallik ta'tili, homiladorlik va tug‘ish ta'tili) belgilanishi zarur.

8. Ijtimoiy himoya

• O‘qituvchining ijtimoiy himoyasi va pensiya tizimiga oid ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

9. Mehnat munosabatlarini tugatish

• Shartnomani tugatish shartlari (masalan, taraflarning kelishuvi, ish beruvchi tomonidan mehnat qonunlarini buzganlik uchun) ko‘rsatilishi kerak.

10. Qonuniy asoslar

• Shartnomada O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va ta'lim sohasidagi boshqa qonunlarga tayangan holda tuzilganligi ko‘rsatilishi lozim.

11. Qo'shimcha shartlar

• Zarur bo‘lganda, qo‘shimcha shartlar (masalan, o‘qituvchining malakasini oshirish, seminar va treninglarda ishtirok etish shartlari) kiritilishi mumkin.

12. Imzo va sanalar

• Shartnoma tomonlari (ish beruvchi va ishchi) imzolari va shartnoma tuzilgan sana ko‘rsatiladi.

O‘qituvchilar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi har ikki tomonning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

8-slayd. Oʻzbekiston Respublikasida oʻqituvchilar uchun kasb standartlari ta'lim sohasidagi sifatni oshirish, oʻqituvchilarning professional malakasini belgilash va ularning ish faoliyatini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Oʻqituvchi kasb standartlari quyidagi asosiy jihatlarni oʻz ichiga oladi:

1. Kasb ta'rifi

• Oʻqituvchining kasbi, uning asosiy vazifalari va maqsadlari, shuningdek, ta'lim jarayonidagi roli.

2. Malaka talablariga qoʻyiladigan talablar

• Oʻqituvchining malakasi va ta'lim darajasiga qoʻyiladigan talablar (masalan, oliy ma'lumot, pedagogik tayyorgarlik).

3. Vazifalar va mas'uliyatlar

• Oʻqituvchining asosiy vazifalari:

• Dars oʻtkazish va oʻquvchilarni baholash.

• Ta'lim dasturlarini amalga oshirish.

• Oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

• Oʻquv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash.

4. Koʻnikmalar va kompetensiyalar

• Oʻqituvchi uchun zarur boʻlgan koʻnikmalar (masalan, muloqot, muammolarni hal qilish, innovatsion yondashuvlar) va kompetensiyalar (pedagogik, psixologik, metodik).

5. Kasbiy rivojlanish

• Oʻqituvchining kasbiy rivojlanishi uchun zarur boʻlgan malaka oshirish va qayta tayyorgarlik kurslari.

6. Ijtimoiy va etika masalalari

• Oʻqituvchining ijtimoiy mas'uliyati, etik qoidalar va oʻquvchilar bilan munosabatlar.

7. Natijalar va baholash

• Oʻqituvchining ish faoliyatini baholash mezonlari va natijalari (oʻquvchilarning muvaffaqiyati, darslarni tashkil etish darajasi).

8. Kasbga oid qonunlar va normativ hujjatlar

• Oʻzbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunlari va me'yoriy hujjatlari.

9. Innovatsion yondashuvlar

• Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, onlayn ta'lim va boshqa innovatsion usullar.

Oʻqituvchi kasb standartlari ta'lim tizimida oʻqituvchilarni tayyorlash, ularning professional malakasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu standartlar ta'lim muassasalari tomonidan oʻqituvchilarni tanlash va baholashda asos sifatida foydalaniladi.

9-slayd. Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatida ishlovchi shaxslar uchun belgilangan etik va professional me'yorlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qoidalar davlat xizmatchilarining ish faoliyatini tartibga solish, ularning professional xulq-atvorini belgilash va davlat xizmatining sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Odob-axloq me'yorlari

• Davlat fuqarolik xizmatchilari o‘z vazifalarini bajarishda halollik, adolat, shaffoflik va mas'uliyatni ta'minlashlari kerak.

• Xizmatda bo‘lish jarayonida odob-axloq qoidalariga rioya qilish, shaxsiy manfaatlarni davlat manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik.

2. Kasbiy xulq-atvor

• Davlat xizmatchilari o‘z ish faoliyatida professional yondashuvni namoyon etishlari, bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlari zarur.

• Xizmatda bo‘lgan vaqtida o‘zini tutish, muomala madaniyatiga rioya qilish.

3. Ijtimoiy mas'uliyat

• Davlat fuqarolik xizmatchilari jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglashlari, fuqarolar bilan muloqotda muloyim va samimiy bo‘lishlari kerak.

• Xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish.

4. Ochiqlik va shaffoflik

• Davlat xizmatchilari o‘z faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, fuqarolarga axborot berishda shaffoflikni saqlashlari zarur.

• Xizmat jarayonida fuqarolar bilan samarali va ochiq muloqot qilish.

5. Xizmatdan foydalanish

• Davlat fuqarolik xizmatchilari o‘z xizmatidan foydalanishda fuqarolarni teng ko‘rishlari, hech kimga imtiyoz bermasliklari lozim.

• Xizmat ko‘rsatishda har qanday turdagi korrupsiya va suiiste'molliklardan qochish.

6. Xulq-atvor kodeksi

• Har bir davlat xizmatchisi o‘z ish joyida xulq-atvor kodeksiga amal qilishi, o‘z vazifalarini bajarishda yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilishi kerak.

7. Etik masalalar

• Davlat xizmatchilari o‘zaro hamkorlikda, jamoa ruhida ishlash, bir-biriga yordam berish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu qoidalar davlat fuqarolik xizmatchilarining professional faoliyatini yanada samarali va sifatli tashkil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 157-son qarori, 27.03.2024 yil

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 406-son buyrugi, 17.12.2021 yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun 23.09.2020 yil.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi kasb standarti // O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Р.003.332.1286/И-21. 23.08.2021 № 332-ИЧ.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**
O‘quv modul	Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar
Mavzu	Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda qo‘llash
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarning ta’limga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar haqida bilimlarini boyitish. • O‘qituvchilarning me’yoriy-huquqiy hujjatlar tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish; - mashg‘ulotning dolzarb-ligini asoslash.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	- Davlat ta’lim standartini tushuntirish; - Davlat ta’lim standarti, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning ahamiyatini	35	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-10- slaydlar	O‘qituvchilar davlat ta’lim standarti hamda ta’limga oid boshqa me’yoriy-huquqy hujjatlarning ahamiyatini nazariy

	izohlash; - O‘qituvchi kasb standarti tushunchalarini slaydlar bilan tushuntirish.				jihatdan o‘rganadilar.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish	15	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 11-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhoka-ma qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish.	10	Suhbat, muhokama, tahlil	11-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “BBB” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	12-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish.	5	Suhbat	13-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

- Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarlar haqida nimalarni bilasiz?
- Davlat ta’lim standartining o‘qituvchi uchun qanday ahamiyati bor?
- Yashil iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
- O‘qituvchi kasb standarti nima?

2- ilova. 1-tarqatma material

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

1-guruh

An’anaviy o‘quv jihozlaridan foydalangan holda qanday qilib ta’lim sifatini oshirish mumkin?

2-guruh

Ta’lim turlarini ayting va ularga izoh bering.

3-guruh uchun topshiriq

O‘qituvchi kasb standartini davlat ta’lim standartidan farqini ayting?

4-guruh uchun topshiriq

Nima uchun bugun atrof-muhitni asrashga alohida e’tibor qaratilyabdi?

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	**Afzalliklari**

2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik” moduli

1-mavzu. Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi
(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Faollashtiruvchi topshiriq

1. O‘z kasbiy rivojlanishimiz yo‘lida keyingi qadamlarni qanday qilib aniqlashtiramiz?
2. Kasbiy rivojlanishni kafolatlash maqsadida refleksiv faoliyatning qaysi modellaridan foydalanish mumkin?
3. Kasbiy faoliyatdagi ahamiyatga molik voqea-hodisalar (critical incidents) nima va ulardan refleksiyani rag‘batlantirish yo‘lida qanday foydalanish mumkin?

Reja

1. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish.
2. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning roli.
3. Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari

KIRISH

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish – bu har bir professionalning o‘z malakasini oshirish, tajriba orttirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviy ish sharoitlarida nafaqat individual, balki jamoaviy hamkorlikda ham amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyatning samarali rivojlanishi uchun har bir mutaxassisning o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, jamoaviy ish va hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyati zarur.

Bugungi kunda kasbiy rivojlanish metodikasi nafaqat individual yondashuvni, balki hamkorlik faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini ham o‘z ichiga oladi. Individual faoliyat – bu o‘z maqsadlarini amalga oshirishda mutaxassisning o‘zini o‘zi boshqarish va doimiy o‘rganish jarayoni bo‘lsa, hamkorlik faoliyati esa jamoa bilan birgalikda maqsadga erishish, tajriba almashish va umumiy qarorlar qabul qilishni anglatadi. Bu ikkala faoliyat turi, birgalikda amalga oshirilganida, nafaqat kasbiy o‘sishni tezlashtiradi, balki yangi imkoniyatlarni yaratadi.

1. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish.

Prezident maktablari – bu nafaqat yuqori malakali o‘qituvchilarni, balki zamonaviy pedagogik metodlar va ilg‘or ta’lim tizimlarini o‘z ichiga olgan muassasalar bo‘lib, ular yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maktablar o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish. Prezident maktablarida o‘quvchilarga kasb-hunarga yo‘naltirish masalasi, ularni kelajakda muvaffaqiyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, nafaqat ular uchun kelajakda aniq va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shish uchun ham zarurdir. Buning uchun o‘qituvchilar turli kasblar haqida ma'lumotlar berib, o‘quvchilarga o‘z qiziqishlarini va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam berishlari kerak.

Tanqidiy fikrlash va axborotni izlash. Prezident maktablarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Tanqidiy fikrlash – bu faqat o‘rganilgan ma'lumotni yodlash emas, balki ularni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan qarab, muammolarni hal qilishni o‘rganishdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga axborotni izlash, saralash va tahlil qilishni o‘rgatish orqali ularning ilmiy-tadqiqot ishlari va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ilg‘or tajribalarni tatbiq etish. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar, nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirishga, balki o‘qituvchilarning pedagogik metodlarini takomillashtirishga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, yangi o‘qitish metodikalarini qo‘llash, o‘quvchilarga amaliy topshiriqlar berish kabi usullar umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etilishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid bilimlarni yangilab borish muhimdir.

Amaliyotda qo‘llash. O‘quvchilarning olingan bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgatish, ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy ishlar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan nazariy bilimlarni haqiqiy hayot sharoitlarida qo‘llashni o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlar asosida topshiriqlar berishlari va ularni echish usullarini ko‘rsatishlari lozim.

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar, o‘quvchilarda kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali natijalar beradi. Ushbu tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish orqali, nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiramiz, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun mustahkam poydevor yaratamiz. O‘qituvchilar esa, o‘z kasbiy faoliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish, yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish orqali nafaqat o‘quvchilarga, balki jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladilar.

2. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning roli.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish, ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qiziqishini uyg'otish va o‘zgaruvchan talablar va sharoitlarga moslashishga yordam berish juda muhimdir. Shu sababli, refleksiya

va uzluksiz kasbiy rivojlanish, o‘qituvchilarning professional o‘sishida muhim o‘rin tutadi.

Refleksiya – o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish. Refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘z ishlari va qarorlarini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqish, xatolarni tushunish va ularni tuzatish imkoniyatini yaratadi. Refleksiya o‘qituvchining o‘z malakalarini oshirish va pedagogik uslublarini takomillashtirish uchun zarur vositadir. O‘qituvchi o‘zining o‘quvchilari bilan aloqasini, darsni qanday o‘tkazishini, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, keyingi darslarda yaxshilanishlar kiritishi mumkin.

Refleksiya jarayoni o‘qituvchi uchun nafaqat o‘z faoliyatini baholash, balki o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘qitish metodlarini moslashtirish uchun muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchining o‘zgarishga tayyorligini, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini va o‘quvchilarga samarali ta’lim berish uchun zarur bo‘lgan tashabbuslarni shakllantiradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish. Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bu o‘qituvchining malakasini doimiy ravishda oshirish va yangi bilimlar bilan boyitish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini yangilab borishiga, balki pedagogik uslublarini zamonaviy talablarga moslashtirishga ham yordam beradi. Ta’limning zamonaviy sharoitlari va talablarining o‘zgarishi, o‘qituvchidan doimiy ravishda o‘zini rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli, o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, metodikalar va o‘qitishning innovatsion usullarini o‘zlashtirishi zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini, ijodkorligini va professionalizm darajasini oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoniga qatnashishi, uning o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatlarini yaratadi. O‘qituvchi o‘z malakasini oshirish uchun seminarlar, treninglar, konferensiyalar, onlayn kurslar va boshqa ta’lim faoliyatlarida ishtirok etishi lozim.

Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning o‘zaro aloqasi. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Refleksiya orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilgandan so‘ng, qaysi sohalarda rivojlanishga ehtiyoj borligini aniqlaydi. Bu aniqlash, o‘z navbatida, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga undaydi. Refleksiya o‘qituvchining o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi va unga yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga turtki beradi.

O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, xatolarni va kamchiliklarni aniqlagandan so‘ng, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoniga yanada jiddiy kirishadi. Shu bilan birga, yangi bilimlar olish, o‘z ustida ishlash va malakani oshirish jarayonlari o‘qituvchining pedagogik yondashuvlarini yaxshilashda yordam beradi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘zlarining kasbiy o‘sishlarini to‘g'ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’lim jarayonining ajralmas qismlaridir. Refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tanqidiy baholash va o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishini ta'minlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish esa, o‘qituvchining yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, pedagogik uslublarini

doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi. Bu jarayonlarning birlashishi o‘qituvchilarning professional o‘sishini tezlashtiradi, ularni ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga moslashtiradi va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berishga imkon yaratadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy rivojlanishiga jiddiy yondashishi kerak, chunki bu nafaqat uning o‘zining, balki butun jamiyatning ta’lim darajasining oshishiga hissa qo‘shadi.

3. Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) deganda o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyati va karerasi davomida o‘z bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarini saqlashi, takomillashtirishi va kengaytirishi tushuniladi. Mazkur kurs singari UKR kurslarida ishtirok etish orqali, ta’lim beruvchilar eng so‘nggi ta’lim amaliyotlari, texnologiyalari va nazariyalari haqida xabardor bo‘lib turishadi va bu orqali yuqori sifatli ta’lim berishga hamda o‘quvchilarning doimiy rivojlanishda bo‘lgan ta’limiy ehtiyojlarini qondirishga qodir mutaxassis bo‘lib boradilar.

Refleksiya samarali uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslarining eng muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Mazkur kursda o‘qituvchilar strukturalashgan faoliyat turlari davomida barcha mavzular bo‘yicha refleksiv mushohoda yuritdilar. Endi bo‘lsa o‘qituvchilar o‘zlarining dars faoliyati davomidagi tajribalaridan saboq olish hamda o‘zlarining kuchli va zaif tomonlari haqida refleksiv mushohoda yordamida yaxshiroq tushunchaga ega bo‘lishni o‘rganadilar.

A) "Nima? Nima qilibdi? Endi nima?”

Bu refleksiv amaliyotning eng oddiy va hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan modeli hisoblanadi. Ushbu model orqali refleksiv amaliyotdan o‘qitish amaliyotlarini tahlil qilish, shaxsning o‘z kuchli va zaif tomonlarini, qiyinchiliklarini hamda kelgusida rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan jabhalarini aniqlashtirishda foydalanish mumkin.

Ushbu mashqni bajarish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. O‘qituvchilardan o‘z faoliyatlarida darsda yaqinda sodir bo‘lgan murakkab vaziyatni eslashni va u haqida o‘ylashni so‘rang.
2. O‘qituvchilardan ushbu tajriba haqida quyidagi savollarga o‘z refleksiv jurnallarida javob yozishlarini so‘rang:

Nima? Ushbu yaqinda o‘tgan darsingizda nima sodir bo‘ldi?

Nima qilibdi?: Nima uchun ushbu voqea Siz uchun muhim ahamiyatga ega? Unda nimani payqadingiz va nimani o‘rgandingiz?

Endi nima?: Keyingi safar huddi shu singari vaziyatda nimani boshqacha qilgan bo‘lar edingiz?

1. O‘qituvchilardan o‘z refleksiv qaydlari bilan juftlikda yoki kichik guruhda o‘rtoqlashishni so‘rang.

2. O‘qituvchilardan o‘z tushunchalarini taqqoslashni va yaxshilanish yo‘lida foydalanish mumkin bo‘lgan strategiyalar haqida aqliy hujum yo‘li bilan o‘ylab ko‘rishga undang.

3. Bir nechta o‘qituvchilardan o‘z refleksiv qaydlari bilan o‘rtoqlashishni so‘rang.

4. Bu trenerlar uchun o‘qituvchilarning refleksiv qaydlari (hikoya)larida takrorlanuvchi, tez-tez uchrovchi mavzular, masala yoki muammolarni ko‘rsatib

o‘tish uchun yaxshi imkoniyat.

5. Ushbu modeldan doimiy ravishda foydalanish o‘qitish amaliyotlariga baho berish va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirishda qanchalik foydali ekanligini ta’kidlang.

6. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu oddi modeldan foydalanish o‘z kasbiy rivojlanishlarida qanchalik foydali bo‘lishi mumkinligi haqida qisqacha qayd qilib qo‘yishlari mumkin.

Navbatdagi faoliyat turida o‘qituvchilar refleksiya modellarining boshqa turlari va ularni o‘z kasbiy faoliyati kontekstiga moslashtirish va qo‘llash haqida o‘rganishadi.

Gibbs refleksiya sikli, Brukfildning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli.

O‘qituvchilar o‘z refleksiv jarayonlarida foydalanishi mumkin bo‘lgan juda ko‘plab tuzilma va modellar mavjud. Ushbu mashqda o‘qituvchilar refleksiyaning uchta modeli: Gibbs refleksiv sikli, Brukfildning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli bilan tanishishadi.

O‘qituvchilarga refleksiya modellari berilgan 2.6B tarqatma material beriladi. Ushbu tarqatma materialda o‘qituvchilarga har bir berilgan model va ularni amaliyotga tatbiq etishning bosqichlari umumlashtirilgan jadval taqdim etiladi.

O‘qituvchilarni juft bo‘lib ishlagan holda tarqatma materialda berilgan uchta modelni tahlil qilishni so‘ranladi. Shuningdek, o‘qituvchilardan juft bo‘lib ishlagan holda har bir modelni muhokama qilishni va berilgan modellarda ularga nima manzur bo‘lgani va bo‘lmaganligini bir-birlariga izohlab berishlarini so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilar berilgan modellardan bittasini o‘z hayotlarida sodir bo‘lgan muhim voqea hodisa xususida refleksiya qilib ko‘rishda foydalanishi hamda bu orqali ushbu refleksiya modelining o‘qitishdan boshqa kontekstlarda qanday ish berishini sinab ko‘rishlari mumkin. Hayotdagi voqea hodisaga misol sifatida uyda yoki ishda bo‘lgan, o‘zlari rejalashtirgandek chiqmagan yoki kutilmagan salbiy natijaga olib kelgan voqea-hodisa bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilardan qaysi modeldan foydalanganliklarini butun guruhga yoki Padlet orqali aytib berishni hamda ular refleksiya qilgan voqea-hodisaning qisqacha mazmunini aytib berishni so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilardan o‘z refleksiv jurnallariga mazkur mashg‘ulotda foydalangan hamda eng yaxshi deb topgan refleksiya modellari xususida qisqacha qayd kiritib qo‘yishlarini so‘raladi. O‘z qaydlarida nima uchun aynan shu modelni ma’qul ko‘rganliklarini va undan o‘z faoliyatlarida hamda turli kontekstlarda foydalanishga nima uchun eng mosi deb topishlarini izohlashni so‘raladi.

B) O‘z kasbiy amaliyotimizda refleksiyani rag‘batlantirishda ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents)dan foydalanish

Ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents) bizning kasbiy faoliyatimizda sodir bo‘ladigan kutilmagan, muhim ahamiyatga ega voqealar sanaladi. Bular ichiga biz va o‘quvchilarimiz o‘rtasida sodir bo‘ladigan murakkab vaziyatlar, sinfni boshqarishdagi ikkilanishlar yoki o‘rganishdagi muvaffaqiyatni, imkoniyatlarni ajratib ko‘rsatuvchi voqealarni kiritish mumkin.

Ahamiyatli voqea-hodisalar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Misol uchun:

- Batafsil rejalashtirilganligiga qaramay o‘quvchilarni faol jalb qila olmagan, muvaffaqiyatsiz o‘tgan dars.
- Darsga putur yetkazgan o‘quvchilar o‘rtasidagi kelishmovchilik.
- Ma’lum bir o‘qitish strategiyasining kutilmagan darajada muvaffaqiyatli bo‘lgan va o‘quvchilarning mukammal darajada tushunishiga yetaklagan vaziyat.

Ahamiyatli voqea-hodisalar refleksiv amaliyotni rag‘batlantirish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin.

Ahamiyatli voqe-hodisalar qay tarzda kasbiy o‘sishga yetaklashi mumkinligini namoyish qilish uchun o‘qituvchilarni quyidagi jarayondan o‘tishga taklif qiling:

1. Quyidagi ahamiyatli voqeani o‘qituvchilarga taqdim eting.

O‘qituvchi interaktiv darsni yaratish ustida ancha vaqt sarflaydi. Sa’y-harakatlariga qaramay, o‘quvchilar dars davomida faol bo‘lishmaydi, ko‘pchiligi muhokamalarda ishtirok etmaydi yoki guruhda bajariladigan topshiriqlarni bajarishmaydi. Dars so‘ngida o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan savollarga sust javob berishadi va ayrimlari darsdan kutilgan maqsadlarni tushunmaganliklarini e’tirof etishadi.

2. O‘qituvchilardan ularning ham faoliyatida huddi shu kabi vaziyat bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini yoki boshqa hamkasblarida shu kabi vaziyat bo‘lgan-bo‘lmaganligini so‘rang.

3. O‘qituvchilardan nima uchun bu vaziyat ahamiyatli voqea bo‘la olishi va bu vaziyat ularning kasbiy jihatdan o‘sishiga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi haqida so‘rang:

➔ Bu ko‘pchilik o‘qituvchilar boshidan o‘tkazgan bezovta qiluvchi tajriba sanaladi.

➔ Bu darsning tuzilishi va o‘tilishi bo‘yicha ko‘p savollarni o‘rtaga tashlaydi.

➔ Bu o‘quvchilarning ishtiroki xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beradi.

➔ Bu dars jarayoniga turli yondashuvlarni integratsiya qilish kerakligini nazarda tutadi.

1. O‘qituvchilarni refleksiv amaliyotning “Nima?” bosqichi xususida yanada batafsil o‘ylab ko‘rishga chorlang. Masalan, o‘qituvchilar darsning yaxshi natija bergan va yomon natija ko‘rsatgan qismlari ro‘yxatini tuzishi mumkin. O‘quvchilar faol bo‘lmagan darslarda ham o‘quvchilarning diqqatini tortgan va ularni faollashtirgan elementlar bo‘lishi mumkin. Nimalar yaxshi natija berganligi va bermaganligiga diqqat bilan nazar solish o‘qituvchilarga yanada samarali muhokama uchun xizmat qilishi mumkin.

2. O‘quvchilar nima uchun dars davomida faol bo‘lmaganliklarini yaxshiroq tushunish uchun o‘qituvchilarni aniq savollar berishga chorlang. O‘qituvchilar so‘rashi mumkin bo‘lgan savollarga quyidagilar kirishi mumkin:

➔ O‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga yo‘l qo‘ymagan faktorlar nimalar edi? Dars mazmuni o‘quvchilar qiziqishiga mos emasmidi? Mashq yoki mavzu nima uchun ularga mos ekanligini ko‘rmadimi? Mavzuni tushunish

haddan tashqari qiyinmidi? O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha ilgari egallangan bilimlari bormidi?

➔ Dars maqsadlari aniqmidi? Maqsadlar juda keng qamrovlimidi yoki juda osonmidi?

➔ Ko‘rsatmalar aniq va ularni tushunish osonmidi?

➔ O‘quvchilarning turli ehtiyojlariga murojaat qiluvchi turli tuman strategiya va texnikalardan foydalanilganmidi?

Yuqoridagi savollarni berish orqali o‘qituvchilar “**Nima bo‘libdi?”** savoliga yanada batafsil javoblar topishadi.

Endi o‘qituvchilarni dars ishlanmasi va darsni o‘tish o‘quvchilarni yanada faolroq ishtirok etishga undaydigan darajaga keltirish uchun nimalar qilish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga chorlang, ya’ni o‘qituvchilarni **“Endi nima?”** degan savolga javob izlashga chorlang. O‘qituvchilardan quyidagi ayrim tavsiyalar kelib tushishi mumkin:

- ➔ Dars maqsadlari aniq va o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri tushunilishini ta’minlash.
- ➔ Darsni o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otuvchi va hayot bilan mavzu o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish imkonini beruvchi qisqacha qiziqarli kirish mashqidan boshlang.
- ➔ Mashqlarni bajarish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar bering.
- ➔ Dars davomida o‘quvchilardan nimalar kutib qolinishini ochiq-oydin va aniq ifodalang.
- ➔ Ijobiy o‘rganish muhitini yaratish uchun o‘quvchilarning ilgari egallagan bilimlarini faollashtiring.
- ➔ Faol ta’lim olishni rag‘batlantiruvchi turli mashq va topshiriqlar yarating.
- ➔ Har bir mashq va faoliyat turi uchun havozalash strategiyalarini rejalashtiring.
- ➔ Turli qobiliyat va ehtiyojlarga murojaat qilish uchun mazmun va jarayonni tabaqalashtiring.
- ➔ O‘quvchilarning butun dars davomida tushunishlarini tekshirib boring va davomil qayta aloqa bering.
- ➔ O‘quvchilar tushunmasa yoki nima qilish kerakligini bilmasa, savollar bilan murojaat qilish imkoniyatini bering.
- ➔ Barcha uchun tanish faoliyat turlari (rutinalar)dan foydalanishda yoki ayrim yangi texnika va strategiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlang.
- ➔ Darsdagi faoliyat turlari tig‘iz bo‘lib qolmasligi uchun va har bir faoliyat turini bajarishga yetarli vaqt ajratilishi uchun mashq va topshiriqlarga ajratilgan vaqtni tegishli tazda moslashtirib chiqing.
- ➔ O‘quvchilar darsning bir qismi tugab, yangi bosqichi boshlanayotganligini aniq bilishi uchun, bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga o‘tishda aniq qadamlarni integratsiya qiling.

Ahamiyatli voqea-hodisa ustida refleksiv mushohoda yuritish bo‘yicha ushbu namunani keltirib o‘tgach, o‘qituvchilardan o‘z tajribalarida sodir bo‘lgan ahamiyatli voqea-hodisalarga iloji boricha ko‘proq misollar keltirishni so‘rang. O‘qituvchilar keltirib o‘tgan ahamiyatli voqea-hodisalarning ro‘yxatini tuzing.

Quyida o‘qituvchilar misol tariqasida berishi mumkin bo‘lgan ayrim ahamiyatli voqea-hodisalardan namunalar keltiriladi:

O‘quvchi baland ovozda gapirib, hazil-mutoyiba qilib va tengdoshlariga halaqt bergan holda darsga halaqt beradi. Bir necha bor berilgan og‘zaki ogohlantirishga qaramay salbiy xulq-atvor tobora kuchayib boraveradi va o‘quvchi butun sinf oldida o‘qituvchining nufuziga (avtoritetiga) rahna sola boshlaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga vazifa beradi biroq bir necha nafar o‘quvchi ulardan kutilgan natijaga mos kelmaydigan ishni topshirishadi. Sinf bilan buni muhokama qilgach, o‘qituvchi shuni anglab yetadiki, guruhdagi ko‘pchilik o‘quvchilar baholash mezonini va kutilgan natijalarni yaxshi tushunishmagan ekan.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qiling. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini qanday rivojlantiradi va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologik tengsizliklarni qanday bartaraf etish mumkin?

3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlang. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimida qanday strategiyalarni qo‘llash mumkin va bu strategiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini qanday oshiradi?

4. O‘qituvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodologiyasiga tayyorligi va malakasini oshirishda qanday o‘zgarishlar kiritish zarur? Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchining rolini qanday qayta belgilash mumkin?

5. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning jamiyatdagi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdagi o‘rni va ahamiyatini baholang. Ushbu ta’lim modelini joriy qilish orqali ta’lim tizimi qanday ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminov A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. 2020 y.

2. Gulomov B., Mirzayev, A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: Asosiy tamoyillar va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019 y.

3. Qodirov B. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2018 y.

4. Shayxov I. Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: Nazariya va amaliyot. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti. 2017 y.

5. Boshbekov F. (2021). O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari. Toshkent: “Science and Education” nashriyoti.

6. Xolmatov T. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim texnologiyalarining ro‘li. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. 2020 y.

7. To‘laganov D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika instituti. 2019 y.

8. Raxmonov M. Pedagogik texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish. Toshkent: “Shuhrat” nashriyoti. 2020 y.

9. Abdurahmonov S. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda individual yondashuv va uning samaradorligi. Tashkent: O‘zbekiston oliy ta’lim akademiyasi nashriyoti. 2021 y.

10. Jumaniyozov M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda texnologik yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti. 2019 y.

1.1. modul “Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar”

1-mavzu. Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda qo‘llash

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Reja:

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun
- “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da maktab ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar
- Davlat ta’lim standarti va talablari. O‘qituvchi kasb standarti.
- Mehnat kodeksi asosida yuritiladigan ish hujjatlari

Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarlar haqida nimalarni bilasiz?

Davlat ta’lim standartining o‘qituvchi uchun qanday ahamiyati bor?

Yashil iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?

O‘qituvchi kasb standarti nima?

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun

1 Ta’lim tizimining asosiy hujjati

Qonun ta’lim tizimining barcha ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2 Ta’limning barcha turlari

Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta’limni o‘z ichiga oladi.

3 Ta’lim sifatini ta’minlash

Qonun ta’limning sifatini nazorat qilish va yaxshilash mexanizmlarini belgilaydi.

Davlat Ta’lim Standarti va Talablari

Davlat ta’lim standartlari

— davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui

Davlat ta’lim talablari

— ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar

Davlat Ta’lim Standarti va Talablari

O‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan minimal meyorlarni belgilaydi

Bilim

Ta’lim standarti va talablari bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilim mazmuni va miqdori aniq belgilangan.

Ko‘nikma

O‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar va ularni qo‘llash usullari.

Malaka

O‘quvchilarga mustaqil hayotda muvaffaqiyatli ish olib borish uchun zarur bo‘lgan malakalar.

Kompetensiyalar

O‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni birlashtirib, real hayotda qo‘llash qobiliyati.

O‘qituvchi Kasb Standarti

o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy hujjat



Professionallik

O‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan mas’uliyati va professional etika.

Malaka

Pedagogika, psixologiya va o‘qitish usullari bo‘yicha chuqur bilimlar va ko‘nikmalar.

Kompetensiyalar

O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali o‘rgatish qobiliyati.

Qobiliyatlar

O‘qituvchining o‘z ishida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy qobiliyatlari.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”

1

Atrof-muhitni muhofaza qilish

Ta’lim jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilimlarni o‘rgatish.

2

Yashil iqtisodiyot

O‘quvchilarga yashil iqtisodiyotga oid tushunchalarni singdirish, ekologik toza texnologiyalarni o‘rgatish.

3

Resurslarni tejash

Elekt energiyani tejash, suvni tejamli ishlatish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Mehnat Munosabatlari va Qonunchiligi

Mehnat shartnomasi

O‘qituvchilar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi mazmuni va shartlari.

Ish haqi

O‘qituvchilarning ish haqi miqdori va uni hisoblash tartibi.

Dam olish kunlari va ta’tillar

O‘qituvchilarning dam olish kunlari va ta’tillariga oid qonunchilik hujjatlari.

Mehnat sharoitlari

O‘qituvchilarning mehnat sharoitlari va ularning xavfsizligini ta’minlash.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti

1-bo‘lim.
Umumiy ma’lumotlar

2-bo‘lim.
Kasb standartiga kiritilgan kompetensiyalar

3-bo‘lim.
Umumlashtirilgan kompetensiya standartlarining tasnifi

2-bo‘lim.

Ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish

- O‘quv jarayonini rejalashtirish
- Ta’lim samaradorligini ta’minlash (ta’lim dasturini amalga oshirish)
- O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish
- Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
- Xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash

Kasbiy rivojlanish va hamkorlik

- O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish
- Hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik

O‘quv jarayonini rejalashtirish

Ta’limning aniq va o‘lchanadigan natijalarini, shuningdek ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash va ularni rejalarda shakllantirish.

O‘quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma’lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.

Fanlararo kompetensiyalarni fanga singdirish, o‘z fanini boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘lash (korrelyasiya).

Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish.

Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash.

Davlat Fuqarolik Xizmatchilari Odob-Axloq Qoidalari

1

Hurmat va e’tibor

Barcha o‘quvchilar va ularning ota-onalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

2

Adolatlilik

O‘quvchilarga nisbatan adolatli va teng imkoniyatlar yaratish.

3

Shaffoflik

O‘z ish faoliyati va qarorlarini shaffof va ochiq tarzda amalga oshirish.

4

Mas’uliyat

O‘z ish faoliyati va qarorlarining natijalariga mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.

1-guruh

An’anaviy o‘quv jihozlaridan foydalangan holda qanday qilib ta’lim sifatini oshirish mumkin?

2-guruh

Ta’lim turlarini ayting va ularga izoh bering.

3-guruh uchun topshiriq

O‘qituvchi kasb standartini davlat ta’lim standartidan farqini ayting.

4-guruh uchun topshiriq

Nima uchun bugun atrof-muhitni asrashga alohida e’tibor qaratilmoqda?

REFLEKSIYA

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim

Xulosa va Takliflar

1

Qonunlarni o‘rganish

Pedagog kadrlar ta’lim sohasidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarni puxta o‘rganishi kerak.

2

Kasbiy rivojlanish

O‘z malakasini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishga e’tibor qaratish.

3

Hamkorlik

Ta’lim muassasalarining boshqa xodimlari bilan hamkorlikni mustahkamlash.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**
O‘quv modul	**2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari**
Mavzu	O‘quvchilarda XXI ars ko‘nikmalarini shakllantirish
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	• Tabiiy fanlar ta‘limida XXI ars ko‘nikmalari haqida nazariy va amaliy bilimlarini boyitish. • O‘qituvchilarning tanqidiy, tahliliy, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. 21- asr ta’limida Blum taksonomiyasi murakkab fikrlashni rivojlantirish.

Mashg‘ulot bosqichlari	Faoliyat tavsifi	Vaqt, daqiqa	Metodlar	Zarur jihozlar	Natija
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, Bahs-munozara	1-2-slaydlar	Mavzuga qiziqish o‘yg‘onadi, mashg‘ulotga ishtirok etishga tayyor bo’lishaditayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-4-slayd	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Tushuntirish	21 asr ko‘nikmalarini BLUM taksonomiyasi hamda 4C larga bog‘liqligi, dolzarbligini asoslab berish	15	Aqliy hujum, suhbat	5-14-slayd	O‘qituvchilar tabiiy fanlar ta‘limida XXI ars ko‘nikmalari haqida nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot: Harakatlar rejasi	- Guruhlarda ishlash: - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish;	20	Guruhlarda ishlash	Harakatlar rejasi jadvali	Ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi

				1-ilova	mashq va topshiriqlar orqali inklyuziv ta’lim muhitini yaratuvchi dars rejasini ishlab chiqadi.
3. KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI	Ishtirokchilarga quyida topshiriq beriladi:  O‘ylang…. ➢ **Men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin?** ➢ …… ➢ …….. ➢ ……. ➢ **21 asr ko‘nikmalaridagi 4C larga qanday bog‘liq?** ➢ …… ➢ …….. ➢ …… ➢ **Men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq?** ➢ …… ➢ …….. ➢ …… Ishtirokchilardan **“Ko‘r – fikrla – hayratlan _bog‘la”**	20	Muzyorar, Bahs-munozara	15- slayd	21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda BLUM taksonomiyasi muhim rolidan biri ekanligini o‘rganadi.

	mashqining har bir bosqichi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bo‘lishish so‘raladi.				
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	5	Suhbat, muhokama, tahlil	16-slayd	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	Mentimeter 17-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	18-19-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova

1. Tarqatma material. Harakatlar rejasi jadvali

Foydagi fe’llar	**Mashq va topshiriqlardan misollar**	**Baholash ✓ + -**
YARATISH Yangi ma’lumot qo‘shish Bir yoki bir nechtasini birlashtirish (aralashtirish) Nuqtai nazarni o‘zgartirish		

Yangi mahsulot yaratish Transformatsiya (O‘zgartirish)		
BAHO BERISH Baholash Xulosa yasash Tanlash Munozara qilish Qaror qilish Saralash Tekshirish		
SINTEZ QILISH Shakllantirish Integratsiya qilish Tuzatish kiritish Namuna qilish Qayta tuzish Osonlashtirish Vizuallashtirish		
TAHLIL QILISH Kategoriyalash		

Dekonstruksiya qilish Qismlarga bo‘lish Farqlash Ko‘zdan kechirish (o‘rganish) Ajratib ko‘rsatish Ma’no olish Sanab o‘tish Tartiblash Ustuvorlik berish		
QO‘LLASH Bog‘lash Namoyish qilish Rivojlantirish Tajriba o‘tkazish Tasvirlash (bezash) Ifodalash Hal qilish (yechim topish)		
TUSHUNISH So‘rash Tasniflash Taqqoslash		

Baho berish Tushuntirish Umumlashtirish Solishtirish Taxmin qilish Refrazalash Hisobot berish Umumlashtirish		
ESLASH Tanlash Aniqlik kiritish Aniqlash Diagrammani belgilash Sanab o‘tish Yodga olish Takrorlash Ko‘rsatish Aytish		

2-ilova

KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI

Ko‘r	Fikrla	Hayratlan	Bog‘la
			Buni men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin? Bu 21 asr ko‘nikmalaridagi 4S larga qanday bog‘liq? Bu men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq?
			➢ _____ ➢ _____ ➢ _____

3-ilova

O‘zini o‘zi baholash

Mavzuni qay darajada o‘zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta’lim olishingizga yordam beradi.

Men…	Ko‘proq o‘rganishim kerak	Deyarli o‘zlashtirdim	Ishonchim komil

Mavzu: O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish

Reja:

1. **XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish**
2. **XXI asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi**
3. **XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar**

1-2-slayd

Faollashtiruvchi topshiriq

XXI asrda o‘quvchilar nimalarni o‘rganishlari kerak?

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi ko‘nikmalar talab etiladi.

3-4- slayd

XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish — bu o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir. XXI asr ko‘nikmalari global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida, shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllanadi. Tabiiy fanlar ta’limida bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy e’tibor ilmiy metodologiyalar, texnologik vositalar va interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishga qaratiladi.

XXI asr ko‘nikmalari sifatida quyidagi asosiy ko‘nikmalar belgilangan

Moslashuvchanlik ko‘nikmalari

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish

Kommunikativlik

Raqamli va media savodxonlik

Tanqidiy fikrlash

Kreativlik fikrlash

Hamkorlikda ishlash

Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish

Global va ijtimoiy mas’uliyat

XXI asrda har qanday sohada, ya’ni fan, kasb, jamoatchilik va shaxsiy hayotdagi faoliyatda inson uchun zarur bo‘lgan universal bilim, qobiliyat, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlardir.

5-14- slayd

21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda BLUM taksonomiyasi muhim rol o‘ynaydi

Blum taksonomiyasiga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo’ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

1. Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

2. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

3. Qo‘llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’l namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisobkitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

4. Tahlil darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va

oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

5. Baholash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash

6. Yaratish. Yangicha g‘oyalar yaratish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish XXI asrda o‘quvchilarga muammolarni aniqlash va ular uchun yechimlar ishlab chiqishda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Kommunikativlik

Kommunikativlik – bu odamlar o‘rtasida o‘zaro ma'lumot, g‘oya va bilimlar almashinuvini o‘z ichiga olgan muhim kasbiy va hayotiy ko‘nikma. Kommunikativlik muloqot qila olish, o‘z fikrini boshqalarga yetkaza olish, suxbatdoshini tinglay olish, muzokaralar olib borish qobiliyatidir.

Kreativlik fikrlash

Kreativlik shaxsning o‘ziga xos innovatsion g‘oyalar yaratish, yanglik kiritish, ishga ijodkorlik bilan yondashish, yangi yo‘llarni izlash, yangi usullarni qo‘llash va muammoning yangicha yechimlari yuzasidan qaror qabul qilish kompetensiyasi. Kreativ insonlar standart fikrlash chegarasidan chiqa oladilar, hodisa va ob’ektlar o‘rtasidagi kutilmagan bog‘liqliklarni payqay oladilar, mavjud fikrlardan yangi kontent yarata oladilar.

Hamkorlikda ishlash

Hamkorlikda ishlash (kolloboratsiya)– bu umumiy maqsadga erishish yo‘lidagi hamkorlik. Kolloboratsiyaning maqsadi murakkab muammolarni hal etish va muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bilim, tajriba va resurslarni birlashtirishdan iborat.

Hamkorlikda ishlash muammoga turli nuqtai nazardan qarash imkonini beradi, bu esa albatta yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlarga olib keladi. Hamkorlikda ishlashning muammolarga individual yondashuvdan afzalligi mehnatni samarali taqsimlash, ko‘plab manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanish, yuqori darajadagi ijodkorlik va yechimlar sifatidan iborat.

11-16-slayd

Amaliy mashg‘ulot: Harakatlar rejasi jadvali asosida topshiriq beriladi

Foydagi fe’llar	**Mashq va topshiriqlardan misollar**	**Baholash ✓** **+ -**
YARATISH Yangi ma’lumot qo‘shish Bir yoki bir nechtasini birlashtirish (aralashtirish) Nuqtai nazarni o‘zgartirish Yangi mahsulot yaratish Transformatsiya (O‘zgartirish)		
BAHO BERISH Baholash Xulosa yasash Tanlash Munozara qilish Qaror qilish Saralash Tekshirish		
SINTEZ QILISH Shakllantirish Integratsiya qilish Tuzatish kiritish Namuna qilish Qayta tuzish Osonlashtirish Vizuallashtirish		
TAHLIL QILISH Kategoriyalash Dekonstruksiya qilish Qismlarga bo‘lish Farqlash Ko‘zdan kechirish (o‘rganish) Ajratib ko‘rsatish Ma’no olish Sanab o‘tish Tartiblash Ustuvorlik berish		
QO‘LLASH Bog‘lash Namoyish qilish Rivojlantirish Tajriba o‘tkazish Tasvirlash (bezash) Ifodalash Hal qilish (yechim topish)		

TUSHUNISH So‘rash Tasniflash Taqqoslash Baho berish Tushuntirish Umumlashtirish Solishtirish Taxmin qilish Refrazalash Hisobot berish Umumlashtirish		
ESLASH Tanlash Aniqlik kiritish Aniqlash Diagrammani belgilash Sanab o‘tish Yodga olish Takrorlash Ko‘rsatish Aytish		

2-ilova

15-slayd

KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI asosida

Ko‘r	Fikrla	Hayratlan	Bog‘la
			Buni men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin? Bu 21 asr ko‘nikmalaridagi 4S larga qanday bog‘liq? Bu men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq?
			➢ _____ ➢ _____ ➢ _____

17-slayd

O‘zini o‘zi baholash

Mavzuni qay darajada o‘zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta’lim olishingizga yordam beradi.

Men…	Ko‘proq o‘rganishim kerak	Deyarli o‘zlashtirdim	Ishonchim komil

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schools of the Future Defining New Models of Education for the Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum 91-93 route de la Capite CH-1223 Cologny/Geneva Switzerland

2. CHANGE OR DIE. The Three Keys to Change at Work and in Life. Alan Deutschman

3. Singapore “Facts, Geography, History, & Points of Interest” SimpleWebGuide.com

4. Outliers The Story of succes Malcolm Gladwell. https://www.edsurge.com/news

MODUL 2.3.
ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARI

MAVZU:
O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish

2 21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi

3 XXI asr ko‘nikmalari

4 Xulosalar va amaliy tavsiyalar

21 asrda o‘quvchilar nimalarni o‘rganishlari kerak?

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi ko‘nikmalar talab etiladi.

XXI asr ko‘nikmalari



Tanqidiy fikrlash (va muammoni hal qilish) Critical Thinking (and Problem Solving)

axborotni tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash, asosli xulosalar chiqarish va muammoga yechim topish

Kreativlik (va innovatsiya) Creativity (and innovation)

yangi g‘oyalar yaratish, muammoga noodatiy, yangi va maqbul yechim(lar) topish

Muloqot Communication

o‘z fikrini (yozma, og‘zaki nutq, raqamli vositalar yordamida) aniq ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish

Hamkorlik Collaboration

jamoa bo‘lib ishlash, hamkorlik qilish va vazifalarni taqsimlash qobiliyati (har bir o‘quvchi o‘z hissasini qo‘shadigan guruh loyihalarini bajarishi)

XXI asr ko‘nikmalari

Raqamli savodxonlik
Digital Literacy

ta’lim olish (o‘rganish), muloqot qilish va muammolarni hal qilish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli vositalardan samarali foydalanish

Axborot savodxonligi
Information Literacy

ishonchli ma’lumotni topish, baholash hamda undan samarali va mas’uliyatni his qilgan holda foydalanish

Moslashuvchanlik
Adaptability

o‘zgarishlarga ochiq bo‘lish, yangi vaziyatlar va qiyinchiliklarga moslasha olish

Global xabardorlik
Collaboration

turli madaniyatlar va o‘zaro aloqalar, global muammolarni tushunish va baholash

21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda BLUM taksonomiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Blum taksonomiyasi va uning darajalari

Yaratish

Yangicha g‘oyalar yaratish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish

Baholash

Turli g‘oyalarni baholash, mezonlarni qo‘llash

Tahlil qilish

Ma‘lumotlarni qismlarga ajratish, o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash

Qo'llash

O‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish

Tushunish

Ma'lumotni talqin qilish, tushunchalarni o‘zlashtirish

Eslab qolish

Ma'lumotni xotirada saqlash, aniq qayta berish

Bilish darajasi: Eslab qolish, tushunish, qo‘lash

Eslab qolish

Asoslarni, faktlarni, sanalarni, ta'riflarni eslab qolish, takrorlash.

Tushunish

Ma'lumotni tushuntirish, o‘z so‘zlari bilan bayon qilish, misollar keltirish.

Qo‘llash

O‘rganilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, amaliyotga tatbiq etish.

Anglash darajasi: Tahlil qilish, baholash, yaratish

1

Yaratish

Yangicha g‘oyalar, mahsulotlar, yechimlar yaratish.

2

Baholash

Turli yechimlarni baholash, mezonlarga muvofiqlikni aniqlash.

3

Tahlil qilish

Ma'lumotni qismlarga ajratish, o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish.

21-asrda talab qilinadigan ko‘nikmalar

1 **Ijodkorlik va muammoni hal qilish**

Yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, nostandart yechimlar topish

2 **Kommunikatsiya va hamkorlik**

Fikrlarni samarali etkazish, boshqalar bilan birgalikda ishlash

3 **Axborot savodxonligi va raqamli kompetensiya**

Axborotni tanlash, tahlil qilish, ishonchli manbalarni topish

4 **O‘rganishni nazorat qilish va o‘zi-o‘zini boshqarish**

O‘z o‘rganish jarayonini boshqarish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish

Ijodkorlik va muammoni hal qilish ko‘nikmasi

Yangi g‘oyalar

Nostandart fikrlash, qutbdan chiqish, yangi yondashuvlar topish

Muammolarni hal qilish

Tanqidiy fikrlash, muammoni aniqlash, samarali yechimlar topish

Tajriba

Xato qilishdan qo'rqmaslik, yangi narsalarni sinab ko'rish, o'rganish

Kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmasi

1. **Tinglash**
   Boshqalarning fikrlarini diqqat bilan tinglash, tushunish
2. **Gapirish**
   Fikrlarni aniq va ravshan etkazish, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash
3. **Yozuv**
   Fikrlarni yozma ravishda ifodalash, mantiqiy tuzilishga ega bo‘lish
4. **Hamkorlik**
   Boshqalar bilan birgalikda ishlash, bir-birini qo‘llab- quvvatlash, jamoaviy maqsadga erishish

Axborot savodxonligi va raqamli kompetensiya



Axborotni tanlash

Turli manbalarni tekshirish, ishonchli axborotni ajratish

Raqamli texnologiyalar

Turli dasturlarni qo'llash, Internetda samarali qidirish, ma'lumotni tahlil qilish

KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN BOG‘LA MASHQI (20 daqiqa)



- MEN O‘QITADIGAN FAN MAVZULARIGA QANDAY BOG‘LASH MUMKIN?
- 21 ASR KO‘NIKMALARIDAGI 4S LARGA QANDAY BOG‘LIQ?
- MEN TASHKIL QILADIGAN DARSLARDAGI MASHQ VA TOPSHIRIQ HAMDA O‘QITISH AMALIYOTLARGA QAY TARZDA BOG‘LIQ?

QANDAY SAVOL PAYDO BO‘LDI

Xulosalar va amaliy tavsiyalar

1

Maqsadlar

Ta'limda aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish

2

Ko‘nikmalar

21-asrda talab qilinadigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish

3

Baholovchi o‘lchovlar

O'quvchilarning progressini baholovchi o'lchovlarni taksonomiya darajalariga mos ravishda ishlab chiqish

O‘zini o‘zi baholash

Mavzuni qay darajada o‘zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta’lim olishingizga yordam beradi.

Men…	Ko‘proq o‘rganishim kerak	Deyarli o‘zlashtirdim	Ishonchim komil

O‘rganishni nazorat qilish va o‘zi-o‘zini boshqarish

Maqsadlar

O‘z maqsadlarini aniqlash, ularga erishish uchun rejalar tuzish

Strategiyalar

O‘ziga mos o‘rganish usullarini tanlash, o‘rganishni optimallashtirish

Baholash

O‘z progressini kuzatib borish, kamchiliklarni aniqlash, o‘ziga to‘g‘ri baho berish

Faol ishtirokingiz uchun rahmat!

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING YANGI TIZIMI



Reja:

01 **Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi**

02 **Baholash tamoyillari**

04 **Formativ va summativ maqsadlarda baholash.**

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

O‘quvchilarning chuqurroq ta’lim olishini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayoni mazmuniga baholashni qanday singdirishimiz mumkin?

Baholash o‘qitish va o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon bo‘lib, bunda o‘quv jarayonini o‘lchash, hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil vosita va usullar qo‘llaniladi

Berilgan mulohazalar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlang

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.

2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.

3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir



4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.

5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi

Xususiyat	Izoh/ta’rif
Validlik	Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi.
Inklyuzivlik	O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak.
Qo‘llaniladigan	Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim.
Ishonchlilik	Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim.
Aniqlik	Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim.
Moslik	O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

O‘QUVCHILARNING O‘QIB O‘RGANISHLARIGA KATTA TA’SIR KO‘RSATUVCHI IKKITA BAHOLASH TURI MAVJUD.

FORMATIV (SHAKLLANTIRUVCHI) VA SUMMATIV (XULOSALOVCHI) BAHOLASH

Mavzuga kirish mashqi sifatida berilgan “Kirish mashqi”da to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topish so‘ralgan 5 ta gap berilgan edi. Kirish mashqidagi javoblarni qayta ko‘rib chiqing va kerak hollarda o‘z javoblariga kerakli tuzatishlar kiriting!

01 Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

02 Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?

03 Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

Mavzu: O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi

Reja:

1. **Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi**
2. **Baholash tamoyillari**
3. **Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash.**

1. Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi

O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi va ta’limda innovatsiyalar joriy etilishi natijasida bilimlarni baholashda turli yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Quyida ushbu tizimlarning asosiy xususiyatlari va yondashuvlari mavjud.

O‘quvchilarning chuqurroq ta’lim olishini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayoni mazmuniga baholashni qanday singdirishimiz mumkin?

Baholash o‘qitish va o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon bo‘lib, bunda o‘quv jarayonini o‘lchash, hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil vosita va usullar qo‘llaniladi.

1-tarqatma material. Kirish mashqi

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.

2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.

3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.

4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.

5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

Mavzuga kirish sifatida o‘qituvchilarni to‘g‘ri/noto‘g‘ri mashqini bajarish orqali egallagan bilimlarini takrorlash, ilgari egallangan bilimlarni faollashtirish va

ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan mashq hisoblanadi. Bu mashq ularning baholash haqidagi bilimlarini tekshirish uchun mo‘ljallanmagan. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchilar o‘z javoblarini qayta ko‘rib chiqishi va mashg‘ulot davomida egallagan yangi bilimlar va tushunchalarini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Baholash tamoyillari

Samarali baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular moslashtirish mashqi orqali taqdim etiladi.

2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi

Xususiyat	Izoh/ta’rif
Validlik	Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi.
Inklyuzivlik	O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak.
Qo‘llaniladigan	Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim.
Ishonchlilik	Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim.
Aniqlik	Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim.
Moslik	O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘qituvchilar samarali baholashning oltita xususiyatiga qaragan holda ularning mos ta’rifini topishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchilar avval bu mashqni yakka tarzda bajarishi va so‘ng javoblarini yonlarida o‘tirgan sheriklariniki bilan taqqoslashlari mumkin bo‘ladi.

Ushbu mashqqa yakun yasash uchun, o‘qituvchilardan samarali baholashning mazkur xususiyatlarini ularning fikricha eng muhimidan tortib eng muhim bo‘lmaganiga ko‘ra tartibda qo‘yib chiqishni so‘rang. Ulardan yana sheriklari bilan juft bo‘lib ishlagan holda nima uchun bunday tartibda qo‘yganliklarini muhokama qilishni va tanlangan tartib uchun o‘z sabablarini bir-birlariga tushuntirishlarini so‘rang. Ushbu xususiyatlarning oldindan belgilangan bironta tartibi mavjud emas. Mashqdagi ushbu bosqichni bajarishdan maqsad o‘qituvchilarga ushbu xususiyatlar haqida yanada chuqurroq fikrlash va ularni o‘z ish faoliyati kontekstiga bog‘lash

imkonini berish hisoblanadi. Bu bo‘yicha umuman boshqacha qarash va fikrga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning fikr va mulohozalarini tinglash orqali o‘qituvchilar ushbu xususiyatlarga umuman boshqa tomondan nazar solishlari va yanada chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilardan baholashning tamoyillari bo‘yicha o‘rganganlari, ularning ahamiyati va o‘zlarinikidan farq qiluvchi qarashlarni umumlashtirgan holda o‘z refleksiv jurnallariga qayd kiritib qo‘yishlarini so‘rash lozim.

3. Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash

O‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishlariga katta ta’sir ko‘rsatuvchi ikkita baholash turi mavjud. Ushbu baholashning ikki turi bo‘yicha ko‘proq o‘rganish uchun o‘qituvchilar jigsaw mashqini bajarishadi. Bunda har ikkala baholash turi haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialdan foydalanishadi. O‘qituvchilarni ikkita kichik guruhlarga ajrating. Birinchi guruh Formativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialga diqqatini qaratishadi. Ikkinchi kichik guruh bo‘lsa Summativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma material bilan ishlashadi. O‘qituvchilarga mos tarqatma materiallarni berib chiqing va yakka tarzda berilgan ma’lumotni o‘qib chiqishni so‘rang.

3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli ko‘rinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar o‘quvchilar uchun qanchalik kam bo‘lsa shuncha samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar ushbu baholash turini amalda qo‘llashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-o‘rtoqlash” kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad o‘quvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan o‘rganish imkonini beruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar “chiqish chiptasi”ni bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish o‘rniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘sish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

O‘qituvchilardan o‘qish davomida matndagi asosiy g‘oyalarni belgilab chiqishni va tegishli qaydlar qilishni so‘rang. Birinchi bosqichni tamomlagach, o‘qituvchilar Formativ baholash bo‘yicha “ekspert” va Summativ baholash bo‘yicha “ekspert”lar bilan juftlanadi. Har bir o‘qituvchilar juftligi tarqatma materialda o‘zlariga tegishli mavzu bo‘yicha o‘rganganlarini o‘z hamrohlari bilan o‘rtoqlashadi, ikkita baholash turi o‘rtasidagi farqli tomonlarni muhokama qilishadi va o‘z tajribalarida ushbu baholash turlaridan qanday foydalanganliklari bo‘yicha misollar keltirishadi. So‘ng ular o‘z xulosalarini umumlashtirgan holda hamkorlikda poster yaratishadi va bu posterda ular yangi grafik organayzer yaratib ikkala baholash turiga tushuntirish berishadi. Ular shuningdek posterga har ikkala baholash turining xususiyatini tushuntitib beruvchi belgi, rasm va simvollar tasvirini tushirishadi.

Yaratilgan posterlar auditoriya devorlariga osib qo‘yiladi va o‘qituvchilar galereya bo‘ylab sayohat qilishadi. Bunda o‘qituvchilar auditoriya bo‘ylab yurib tayyorlangan posterlarni tomosha qilishadi, ularda berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqishadi hamda o‘zlari uchun tegishli qaydlar olishadi. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilardan o‘z refleksiv jurnallariga ushbu faoliyatdan o‘rganganlari bo‘yicha hamda sinfxonada ushbu baholash turlaridan foydalanishning amaliy jihatlari haqida qisqacha qayd qilib qo‘yishni so‘rang.

Ushbu mavzuga kirish mashqi sifatida o‘qituvchilarga Kirish mashqida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topish so‘ralgan 5 ta gap berilgan edi. Ushbu bosqichda o‘qituvchilar kirish mashqidagi javoblarini qayta ko‘rib chiqishadi va kerak hollarda o‘z javoblariga kerakli tuzatishlar kiritishadi hamda ushbu tuzatishlarni kiritishlariga turtki bo‘lgan sabablarni keltirishadi.

Ilk bor berilgan javoblarini tekshirib bo‘lishgach va kerakli tuzatishlarni kiritib bo‘lgach, o‘qituvchilarga 1-Refleksiya tarqatma materialida berilgan tavsiya etilgan javoblarni bering.

O‘qituvchilardan o‘z javoblarini tavsiya etilgan javoblar bilan taqqoslashni so‘rang va ular payqagan har qanday farqli tomonlarni qayd qilishlarini so‘rang. Yakunlovchi bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu mashqda o‘rganganlari bo‘yicha xulosalarini refleksiv jurnallariga qayd qilib qo‘yishadi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish
O‘quv modul	2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari
Mavzu	O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	• Dars rejasiga formativ baholash topshiriqlarini kamida ikkita turini kiritish orqali baholashning asosiy tamoyillari va maqsadlarini tushunish; • Qayta aloqa berish amaliyoti haqida fikr yuritadi va sinfda qo‘llashga mo‘ljallangan samarali qayta aloqaning xususiyatlari ro‘yxatini tuzish.

Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu bilan tanishtirish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Mashg‘ulotning mavzusiga yo’naltiruvchi savol berish; - Kirish mashqini o’tkazish.	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	- Baholash tamoyillari haqida bahs-munozara; - Baholash turlari; - Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	4- slayd 1-ilova	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Solishtirma mashq	20	Guruhlarda ishlash	5-7-slaydlar 2-3-ilova	O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

	tarqatmasi yordamida muhokama qilish;				
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	20	Suhbat, muhokama, tahlil	8-slayd	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- O‘z maktablarida hamkasblari bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini yaratish.	5	Refleksiya usullari	9-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	10-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova

1-tarqatma material. Kirish mashqi

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

2-ilova

2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi

Xususiyat	**Izoh/ta’rif**
Validlik	Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi.
Inklyuzivlik	O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak.
Qo‘llaniladigan	Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim.

Ishonchlilik	Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim.
Aniqlik	Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim.
Moslik	O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

2-tarqatma material: javoblar

Aniqlik	Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi.
Validlik	O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak.
Ishonchlilik	Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim.
Inklyuzivlik	Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim.
Moslik	Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim.
Qo‘llaniladigan	O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli ko‘rinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar o‘quvchilar uchun qanchalik kam bo‘lsa shuncha samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar ushbu baholash turini amalda qo‘llashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-o‘rtoqlash” kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad o‘quvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan o‘rganish imkonini beruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar “chiqish chiptasi”ni

bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish o‘rniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘sish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

1-tarqatma material. Refleksiya. Tavsiya etilgan javoblar

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvru, tushunchalarni aniqlaydi. (TO‘G‘RI)
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi. (NOTO‘G‘RI)
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir. (NOTO‘G‘RI)
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi. (TO‘G‘RI)
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi. (NOTO‘G‘RI). Samarali qayta aloqa aniq va bajariladigan bo‘lishi lozim.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

FORMATIV VA SUMMATIV BAHOLASH TIZIMI VA MOHIYATI, BAHOLASH MEZONLARI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash o‘quv jarayonini qanday takomillashtira oladi?

Sinfda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan baholash vositalarining asosiy turlari qaysilar?

Baholashda qayta aloqanining ahamiyati nimada?

O‘qituvchilar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qanday qilib jalb qila oladi?

Reja:

01 **Baholash turlari**

02 **O‘rganishni yanada rag‘batlantirishda qayta aloqadan foydalanish**

03 **Baholash vositalari**

04 **O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga yanada jalb qilish**

Baholash turlari



Avvaldan bilgan va o‘z tasdig‘ini topgan tushunchalarim	Men uchun yangi bo‘lgan narsalar
➢ _____ ➢ _____ ➢ _____	➢ _____ ➢ _____ ➢ _____

2. Baholash vositalari

Baholash vositalari o‘quvchilarning qanchalik bilim olayotganliklarini o‘lchash va ular qo‘lga kiritayotgan natijalar haqida ma’lumot to‘plash imkonini beruvchi resurslar hisoblanadi.

Baholash vositasi	Formativ maqsad	Summativ maqsad
Bo‘lim yakunidagi testlar		Testda ko‘rsatilgan yakuniy natijalar o‘quvchilarga chorak so‘ngida beriladigan tabel yoki shunga o‘xshash boshqa hisobot hujjatlarida aks etadi.
O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari	O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan nazorat ro‘yxatlari bilan ishlar ekan, ular topshiriqni bajarishda belgilangan tartibga rioya qilgan yoki qilmaganliklarini qayta ko‘rib chiqishadi va kutilgan natijalarga erishgan yoki erishmaganliklarini ko‘rishadi. Ushbu baholash vositasi refleksiyani, o‘z-o‘zini baholashni va o‘z-o‘zini monitoring qilishni rag‘batlantiradi.	Huddi o‘sha nazorat ro‘yxatidan o‘qituvchilar baholash topshirig‘ini baholayotganda foydalanishi mumkin.
Voqea-hodisalar qaydlari	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan o‘quvchilarning erishayotgan natijalarini kuzatib borish uchun va kelgusidagi havozalash yoki tabaqalashtirish faoliyat turlariga aloqador qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin.	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan baholash davri yakunlarida hisobot hujjatlarida o‘z sharhlarini/izohlarini keltirishda asos sifatida foydalanishi mumkin.
Chiqish chiptalari		Bo‘lim, yunit so‘ngida o‘qituvchilar shu chiqish chiptalaridan foydalangan holda test savollarini tuzishi mumkin.
Standartlashtirilgan imtihonlar	O‘z ta’rifiga ko‘ra bu vosita summativ baholash hisoblanadi chunki bu orqali o‘quvchilarning natijalari o‘lchanadi va ta’lim dasturining samaradorligiga baho beriladi.	
Loyihalar		Yakuniy mahsulotga qo‘yilgan baho davriy baholashdagi yakuniy baho sifatida qo‘yilishi mumkin.
Dars kuzatuvlari	O‘qituvchilar ushbu kuzatuvlaridan dars rejalariga o‘zgartirish kiritishda, o‘quvchilarni guruhlarga ajratishda va ularga qo‘shimcha yordam berishda foydalanishi mumkin.	

O‘rganishni yanada rag‘batlantirishda qayta aloqadan foydalanish

Mashg‘ulotning ushbu qismini hamda mazkur topshiriqni boshlash maqsadida Grant Viggins tomonidan taklif etilgan ta’rifni taqdim eting. Ta’rifda ayrim so‘zlar tushirib qoldirilgan. O‘qituvchilardan berilgan ta’rifda qaysi so‘zlar tushirib qoldirilgan

“Qayta aloqa bu _____ga erishish sari _____da qanday natijalarga erishayotganligimizni ko‘rsatuvchi _____.”

Samarali qayta aloqa … bo‘ladi

1. Xulq-atvorga asoslanadi, shaxsga emas. –	Topshiriqni bajaruvchiga emas, topshiriqning o‘ziga tegishli bo‘ladi.
2. Muvozanatlashgan bo‘ladi. –	Kuchli tomonlarga va tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan tomonlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
3. Aniq bo‘ladi. –	Misollarni o‘z ichiga oladi va muqobillarni taklif etadi.
4. Realistik bo‘ladi. –	O‘zgartirish mumkin bo‘lgan narsalarga asoslanadi.
5. O‘z vaqtida beriladi. –	To‘g‘ri va mos vaqtda taqdim etiladi.
6. Davomli bo‘ladi. –	Ko‘p hollarda butun jarayon davomida berib boriladi.
7. Hurmat bilan taqdim etiladi. –	Qayta aloqa o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini inobatga oladi.
8. Maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. –	O‘quv faoliyati natijalari va topshiriqning maqsadiga qaratilgan bo‘ladi.
9. Seziladigan bo‘ladi. –	Aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
10. Amalga oshiriladigan bo‘ladi. –	Natijani yaxshilashga qaratilgan harakatlarga misollar beriladi.
11. Do‘stona va tushunarli bo‘ladi. –	Tushunish oson bo‘ladi va haddan ziyod murakkab bo‘lmaydi.
12. Izchil bo‘ladi. –	Stabil va aniq tarzda taqdim etib boriladi.

O‘QUVCHILARNI TA’LIM JARAYONIGA YANADA JALB QILISH

Qayta aloqaning asosiy roli uning o‘quvchilarga o‘z o‘qib-o‘rganishlari haqida ma’lumot berish va o‘z bilimlarini yanada takomillashishtirish uchun imkoniyatni taqdim etishida aks etadi.

Baholashda qayta aloqa o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot vositasi hisoblanadi. To'g'ri va o'z vaqtida berilgan qayta aloqa ta'limning sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Baholashning tamoyillarini o‘z faoliyatlarida amaliyotga tatbiq etish

Har kuni sinfda foydalanish uchun mo‘ljallangan samarali qayta aloqa berish yo‘llari ro‘yxatini tuzing. O‘qituvchilar ushbu ro‘yxatni o‘z o‘quvchilari bilan o‘rtoqlashishi lozim.



2.3 va 2.4 modullarni o‘zlashtirish davomida yaratgan dars rejasiga “Baholash” ustunini qo‘shish. Mazkur ustunchada o‘qituvchilar rejasi qilinayotgan darsga xos va mos bo‘lgan kamida ikkita formativ baholash mashqlarini kiritish

O‘z maktabingizda hamkasbingiz bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini yarating. Ikkalangiz yaratgan ushbu formativ va summativ baholash topshiriqlari (va tegishli materiallar)dan darsda foydalaning

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

Mavzu: Formativ va summativ baholash tizimi va mohiyati, baholash mezonlari

Reja:

1. **Baholash turlari**
2. **Baholash vositalari**
3. **O‘rganishni yanada rag‘batlantirishda qayta aloqadan foydalanish**
4. **O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga yanada jalb qilish**

1. Baholash turlari

Baholash tizimi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, rivojlantirish va nazorat qilish uchun ishlatiladi. Formativ va summativ baholash — ta’limda keng qo‘llaniladigan ikkita asosiy baholash usuli bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega.

Baholashning turli shakllariga kirish mashqi sifatida o‘qituvchilar kichik guruhlarda ishlagan holda formativ va summativ baholash haqida ma’lumot berilgan grafik organayzerdan foydalanish mumkin.

Tarqatma material: Baholash turlari

Quyida berilgan grafik organayzerdagi ma’lumotdan foydalangan holda berilgan jadvalni to‘ldiring:



Avvaldan bilgan va o‘z tasdig‘ini topgan tushunchalarim	Men uchun yangi bo‘lgan tushunchalar
➢ _____ ➢ _____ ➢ _____	➢ _____ ➢ _____ ➢ _____

O‘qituvchilar kichik guruhlarida grafik organayzerda berilgan ma’lumotlarni tahlil va muhokama qilishadi va o‘z faoliyatlari davomida har bir baholash shakli bo‘yicha foydalangan topshiriqlarga misollar keltirishadi. So‘ng o‘qituvchilar tarqatma materialda berilgan jadvalni to‘ldirish orqali yakka tarzda mavzu bo‘yicha grafik organayzerda berilgan ma’lumotlardan qaysilarini oldindan bilganlari va yangi o‘rgangan narsalarini qayd qilishadi.

2. Baholash vositalari

Baholash vositalari o‘quvchilarning qanchalik bilim olayotganliklarini o‘lchash va ular qo‘lga kiritayotgan natijalar haqida ma’lumot to‘plash imkonini beruvchi resurslar hisoblanadi.

O‘qituvchilar tanish bo‘lishi mumkin bo‘lgan baholashning turli vositalari mavjud. Ushbu faoliyat turini boshlash uchun o‘qituvchilar baholashning turli vositalari va ularning ta’riflari berilgan kartochkalarni bir-biriga moslashtirib chiqishadi. O‘qituvchilarni ikkita kichik guruhlarga ajrating va har bir guruhga 2-tarqatma material: Baholash vositalari: ko‘rsatmalar va kartochkalarni tarqatib chiqing. O‘qituvchilar baholash vositalarini ularga mos ta’riflar bilan moslashtirib chiqqach, o‘z javoblarini 2-tarqatma material: Baholash vositalari va ta’riflar: tavsiya etilgan javoblar tarqatma materialida berilgan javoblar bilan taqqoslashni so‘rgang. O‘qituvchilar o‘zlarining javobi va tavsiya etilgan javoblar o‘rtasida biron bir farq bor-yo‘qligini so‘rang.

Baholash vositalari: ko‘rsatmalar va kartochkalar

Har bir baholash vositasini uning mos ta’rifi berilgan kartochkaga moslashtiring.


O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari
Baholash vositalari:
Bo‘lim yakunidagi testlar
Chiqish chiptalari
Voqea-hodisalar qaydlari
Standartlashtirilgan imtihonlar
Loyihalar
Dars kuzatuvlari

Ta’riflari:

O‘qituvchilar o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishi hamda yakka tartibda va jamoada ishlashini kuzatadi.
O‘qituvchilar darsni kuzatish davomida olib boradigan qaydlari bo‘lib, ular o‘z ichiga o‘quvchilarning ma’lum xulq-atvorlarini, ko‘nikmalarini yoki vaqt davomida ma’lum natijalarga erishishini qayd etadi.
Barcha o‘quvchilarga bir xil savollar va bir xil baholash tizimiga ega bir xil tartibda beriladigan testlar. Ushbu testlar o‘quvchilarning ma’lum ko‘nikma yoki bilimlarni egallaganligini o‘lchaydi hamda natijalarni turli maktablar yoki guruhlararo taqqoslash imkonini beradi.
O‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxati yoki topshiriqlarni bajarish tartibi.
Yakuniy natija sifatida namoyish etish mumkin bo‘lgan mahsulotga ega hamkorlikda ishlash faoliyat turlari.
Yunit, bo‘lim yakunida o‘tkaziladigan test yoki imtihon.
O‘quvchilar dars so‘ngida bajaradigan tez va qisqa topshiriqlar. Bunda o‘quvchilar nimalarni o‘rganganini namoyish qilishadi. O‘qituvchilar ulardan keyingi bosqichlarni rejalashtirishda foydalanishi mumkin. Bu topshiriqlarga masalan savolga javob berish yoki qisqacha muqobil variantli test savollariga yoki to‘g‘ri/noto‘g‘ri javobli test savollariga javob berish mashqlarini kiritish mumkin.

2-tarqatma materialda berilgan baholash vositalaridan foydalanish yo‘llari va ularing formativ va summativ baholash turlari sifatidagi potensialini o‘rganish maqsadida o‘qituvchilar juft bo‘lib ishlagan holda keyingi topshiriqni bajarishadi. Har bir juftlikka 3- Baholashning maqsadi tarqatma materialini berib chiqing.

3-tarqatma material. Baholashning maqsadi. Jadvalda berilgan bo‘sh kataklarni o‘z g‘oyalaringiz bilan to‘ldiring.

Baholash vositasi	Formativ maqsad	Summativ maqsad
Bo‘lim yakunidagi testlar		Testda ko‘rsatilgan yakuniy natijalar o‘quvchilarga chorak so‘ngida beriladigan tabel yoki shunga o‘xshash boshqa hisobot hujjatlarida aks etadi.
O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari	O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan nazorat ro‘yxatlari bilan ishlar ekan, ular topshiriqni bajarishda belgilangan tartibga rioya qilgan yoki qilmaganliklarini qayta ko‘rib chiqishadi va kutilgan natijalarga erishgan yoki erishmaganliklarini ko‘rishadi. Ushbu baholash vositasi refleksiyani, o‘z-o‘zini baholashni va o‘z-o‘zini monitoring qilishni rag‘batlantiradi.	Huddi o‘sha nazorat ro‘yxatidan o‘qituvchilar baholash topshirig‘ini baholayotganda foydalanishi mumkin.
Voqea-hodisalar qaydlari	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan o‘quvchilarning erishayotgan natijalarini kuzatib borish uchun va kelgusidagi havozalash yoki tabaqalashtirish faoliyat turlariga aloqador qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin.	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan baholash davri yakunlarida hisobot hujjatlarida o‘z sharhlarini/izohlarini keltirishda asos sifatida foydalanishi mumkin.
Chiqish chiptalari		Bo‘lim, yunit so‘ngida o‘qituvchilar shu chiqish chiptalaridan foydalangan holda test savollarini tuzishi mumkin.
Standartlashtirilgan imtihonlar	O‘z ta’rifiga ko‘ra bu vosita summativ baholash hisoblanadi chunki bu orqali o‘quvchilarning natijalari o‘lchanadi va ta’lim dasturining samaradorligiga baho beriladi.	
Loyihalar		Yakuniy mahsulotga qo‘yilgan baho davriy baholashdagi yakuniy baho sifatida qo‘yilishi mumkin.
Dars kuzatuvlari	O‘qituvchilar ushbu kuzatuvlaridan dars rejalariga o‘zgartirish kiritishda, o‘quvchilarni guruhlarga ajratishda va ularga qo‘shimcha yordam berishda foydalanishi mumkin.	

Ushbu tarqatma materialda o‘qituvchilar 2-tarqatma materialda tanishgan baholash vositalari va ulardan formativ va summativ baholash maqsadida foydalanish bo‘yicha turlicha tavsiyalar berilgan jadvalni ko‘rishlari mumkin. Jadvaldagi ayrim katakchalar bo‘sh qoldirilgan O‘qituvchilardan jadvalda berilgan tavsiya va misollarni diqqat bilan tahlil qilishni va shundan kelib chiqqan holda

bo‘sh qoldirilgan kataklarni ushbu baholash vositalarining qay tarzda formativ va summativ baholash maqsadlarida o‘z o‘quvchilari bilan foydalanish mumkinligi bo‘yicha o‘z g‘oyalarini yozishni so‘rang.

O‘qituvchilar bo‘sh kataklarni o‘z g‘oyalari bilan to‘ldirib bo‘lishgach, o‘z javoblarini 2- Tavsiyalar tarqatma materialida berilgan tavsiya etilgan javoblar bilan taqqoslashadi. O‘qituvchilarga shuni tushuntiringki, ular tavsiya qilgan g‘oyalar tarqatma materialda berilgan javoblardan farq qilishi mumkin. Ushbu topshiriqdan ko‘zlangan maqsad o‘qituvchilarni mos vaziyatlarda berilgan baholash vositalaridan formativ va summativ maqsadlarda foydalanish bo‘yicha chuqurroq mushohoda yuritishga undashdir. Yakuni bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu topshiriq orqali baholash vositalaridan turli maqsadlarda, xususan, o‘z o‘quvchilari bilan formativ va summativ baholash maqsadlarida foydalanish bo‘yicha o‘rganganlari xususida qisqacha mulohozalarini o‘z refleksiv jurnallarida qayd qilib qo‘yishni so‘rang.

3. O‘rganishni yanada rag‘batlantirishda qayta aloqadan foydalanish

Mashg‘ulotning ushbu qismini hamda mazkur topshiriqni boshlash maqsadida Grant Viggins tomonidan taklif etilgan ta’rifni taqdim eting. Ta’rifda ayrim so‘zlar tushirib qoldirilgan. O‘qituvchilardan berilgan ta’rifda qaysi so‘zlar tushirib qoldirilganligini topishni so‘rang:

“*Qayta aloqa bu _____ga erishish sari _____da qanday natijalarga erishayotganligimizni ko‘rsatuvchi _____*.”

O‘qituvchilar o‘z taxminlari bilan o‘rtoqlashishgandan so‘ng Viggins tomonidan taklif etilgan ta’rifning to‘liq variantini taqdim eting:

“*Qayta aloqa bu maqsadlarimizga erishish sari sa’y-harakatlarimizda qanday natijalarga erishayotganligimizni ko‘rsatuvchi ma’lumotdir*.”

O‘qituvchilardan ular uchun ularni ajablantirgan va/yoki qayta aloqa konsepsiyasiga yangicha nazar bilan qarashga undaydigan so‘z bor yoki yo‘qligini so‘rang. O‘qituvchilarga shuni tushuntirib o‘tingki, qayta aloqaning asosiy maqsadi bu o‘quvchilarga o‘z o‘qib o‘rganishlarini yaxshilash imkonini taqdim etish sanaladi. Qayta aloqa mazmunli va to‘g‘ri tuzilishga ega bo‘lsagina, uning o‘quvchilar o‘qib-o‘rganishiga ta’siri beqiyos bo‘ladi. Shu bilan birga agar qayta aloqa mazmunsiz va yaxshi tuzilmagan bo‘lsa, o‘quvchi o‘qib-o‘rganishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Qayta aloqa tushunchasini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida o‘qituvchilar samarali qayta aloqaga xos 12 ta xususiyat berilgan infografika bilan

ishlashadi. O‘qituvchilardan juftlikda ishlashni so‘ragan holda har bir juftlikka 4-“Samarali qayta aloqa ...” tarqatma materialini berib chiqing.

4-tarqatma material. Samarali qayta aloqa ... bo‘ladi.

1. Xulq-atvorga asoslanadi, shaxsga emas. –	Topshiriqni bajaruvchiga emas, topshiriqning o‘ziga tegishli bo‘ladi.
2. Muvozanatlashgan bo‘ladi. –	Kuchli tomonlarga va tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan tomonlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
3. Aniq bo‘ladi. –	Misollarni o‘z ichiga oladi va muqobillarni taklif etadi.
4. Realistik bo‘ladi. –	O‘zgartirish mumkin bo‘lgan narsalarga asoslanadi.
5. O‘z vaqtida beriladi. –	To‘g‘ri va mos vaqtda taqdim etiladi.
6. Davomli bo‘ladi. –	Ko‘p hollarda butun jarayon davomida berib boriladi.
7. Hurmat bilan taqdim etiladi. –	Qayta aloqa o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini inobatga oladi.
8. Maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. –	O‘quv faoliyati natijalari va topshiriqning maqsadiga qaratilgan bo‘ladi.
9. Seziladigan bo‘ladi. –	Aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
10. Amalga oshiriladigan bo‘ladi. –	Natijani yaxshilashga qaratilgan harakatlarga misollar beriladi.
11. Do‘stona va tushunarli bo‘ladi. –	Tushunish oson bo‘ladi va haddan ziyod murakkab bo‘lmaydi.
12. Izchil bo‘ladi. –	Stabil va aniq tarzda taqdim etib boriladi.

Juft bo‘lib ishlagan holda o‘qituvchilar samarali qayta aloqaga xos 12 ta xususiyatni tahlil qilishadi va ularningcha eng muhim 5 ta xususiyatni belgilashadi.

So‘ng har bir juftlik o‘zlari tanlagan eng muhim 5 ta xususiyatni qolgan o‘qituvchilarga taqdim etishadi va o‘z tanlovlarining sabablarini tushuntirishadi. Bunda har bir juftlik o‘ziga xos qarash va nuqtai-nazarga ega bo‘lishi mumkin hamda ushbu qarashlar va nuqtai-nazarlar bilan o‘rtoqlashish orqali o‘qituvchilar samarali qayta aloqaning xususiyatlari haqida va qayta aloqaning ijobiy tomonlari haqida yanada yaxshiroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin.

Yakuniy topshiriq sifatida o‘qituvchilar qayta aloqaning ushbu xususiyatlarini qay tarzda o‘z faoliyatida, o‘quvchilariga ta’lim berish davomida amaliyotga joriy etish yo‘llari haqida fikr yuritishadi Buni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar o‘z

refleksiv jurnallariga qayta aloqaning xususiyatlari hamda ularning dars jarayonida tatbiq etilishiga doir qarashlarini qayd qilib qo‘yishlari mumkin.

4. O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga yanada jalb qilish

Qayta aloqaning asosiy roli uning o‘quvchilarga o‘z o‘qib-o‘rganishlari haqida ma’lumot berish va o‘z bilimlarini yanada takomillashishtirish uchun imkoniyatni taqdim etishida aks etadi. Buni amalga oshirish uchun o‘quvchilardan o‘z o‘qib-o‘rganish jarayonlariga yanada mas’uliyat bilan yondashish, jarayonda faol qatnashish va har bir berilgan qayta aloqa bo‘yicha ishlash talab etiladi.

O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga yanada faolroq jalb qilish yo‘llari hamda berilgan qayta aloqa bo‘yicha ishlashni o‘rgatish haqida o‘rganish maqsadida o‘qituvchilardan “aralashtirilgan gaplar” mashqini bajarishni so‘rang.

Ushbu mashqni bajarish uchun 3 yoki 4 kishidan iborat guruhchalarga bo‘lib chiqing. So‘ng o‘qituvchilarga 5-tarqatma materialida berilgan “aralashtirilgan gaplar”ni berib tarqating. Ushbu aralashtirilgan gaplarda o‘qituvchilar dars davomida o‘quvchilarga qayta aloqa berish va o‘quvchilarning ushbu qayta aloqa bo‘yicha ishlashlarini tashkil qilish bosqichlari berilgan. O‘qituvchilardan ushbu aralashtirilgan gaplarni ularningcha to‘g‘ri bo‘lgan tartibda qo‘yib chiqishni so‘rang.

5-tarqatma material: Quyida berilgan bosqichlarni Sizningcha eng mos tartibda joylashtiring.

Yaxshilanishi kerak bo‘lgan bir nechta yo‘nalishlarni tavsiya qiling. Qayta aloqaning ushbu qismini uddalasa bo‘ladigan, bajarsa bo‘ladigan va aniq bo‘lishini ta’minlashni yoddan chiqarmang (yaxshilanishi kerak bo‘lgan jabhalar haddan ziyod ko‘p bo‘lmasligi kerak).
O‘quvchini qayta ko‘rib chiqish jarayoni xususida refleksiv mushohoda qilishga undang. Bunda o‘quvchidan qanday o‘zgartirish kiritilganini va bu o‘zgarishlar yakuniy natija/mahsulotni qay tarzda yaxshilashini tushuntirib berishni so‘rang.
O‘quvchi berilgan ish/topshiriqni bajarishda erishgan bir nechta yutuqlari/kuchli tomonlarini ta’kidlab o‘ting.
Berilgan qayta aloqaga asoslangan holda o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqishi uchun o‘quvchiga vaqt bering.
O‘quvchiga uning ishi bo‘yicha ikkita yoki uchta savol bering. O‘quvchidan aniqlashtiruvchi yoki yo‘naltiruvchi savollarni so‘rashingiz mumkin. Masalan, “... deyish orqali nimani nazarda tutyapsan?”, “Bu nimani anglatishini anglay olmayapman. Buni boshqacha tarzda tushuntirib bera olmaysanmi?”. Yo‘naltiruvchi savollarga misol sifatida “Bu natijaga qanday erishding?”, “Bu yerga yana nimani qo‘shimcha qilish mumkin deb o‘ylaysan?” kabilar misol bo‘la oladi.

O‘qituvchilar aralashtirilgan gaplarni ularning fikricha to‘g‘ri tartibga qo‘yib bo‘lishgach, ularga to‘g‘ri javob va dars jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan tarqatma materialni bering.

O‘z kichik guruhlarida o‘qituvchilar o‘z javoblarini tavsiya etilgan javoblar bilan taqqoslashadi va berilgan boshqa g‘oya hamda tavsiyalarni tahlil qilishadi. Yakunlovchi bosqich sifatida o‘qituvchilar qayta aloqa va o‘quvchilarni qayta aloqa bilan ishlashga o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z kontekstlarida amaliyotga joriy etish bo‘yicha fikr va mulohozalarini o‘z refleksiv jurnallariga qayd qilib qo‘yishadi.

Mashg‘ulot davomida o‘qituvchilar baholash mavzusiga oid turli mavzular va masalalarni o‘rganishdi. O‘rganganlarini mustahkamlashning turli usul va yo‘llari mavjud. Baholashning tamoyillarini o‘z faoliyatlarida amaliyotga tatbiq etishning ikkita amaliy yo‘liga quyidagilar kiradi:

1. Har kuni sinfda foydalanish uchun mo‘ljallangan samarali qayta aloqa berish yo‘llari ro‘yxatini tuzing. O‘qituvchilar ushbu ro‘yxatni o‘z o‘quvchilari bilan o‘rtoqlashishi lozim. Ideal holatda o‘qituvchilar o‘quvchilariga ushbu ro‘yxatdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga o‘z natijalarini yaxshilash imkonini berish ekanligini va ular o‘qituvchi sifatida buning uchun har doim yordamga tayyor ekanligini, hamda bu ro‘yxat o‘ziga xos “va’da” ekanligini tushuntirishlari kerak.

2. 2.3 va 2.4 modullarni o‘zlashtirish davomida yaratgan dars rejasiga “Baholash” ustunini qo‘shish. Mazkur ustunchada o‘qituvchilar rejasi qilinayotgan darsga xos va mos bo‘lgan kamida ikkita formativ baholash mashqlarini kiritishlari lozim.

O‘z maktabingizda hamkasbingiz bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini yarating. Ikkalangiz yaratgan ushbu formativ va summativ baholash topshiriqlari (va tegishli materiallar)dan darsda foydalaning.

Yaratilgan formativ va summativ baholash topshiriqlari, ularni amaliyotga joriy etishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni hamkasibingiz bilan muhokama qiling. Shuningdek, baholash jarayonidan nimalarni o‘rganganingizni muhokma qiling. Ushbu muhokama natijasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan harakatlar va o‘rganganlaringizni refleksiv jurnalingizga qayd qilib qo‘ying.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish
O‘quv modul	2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari
Mavzu	Formativ va summativ baholash tizimi va mohiyati, baholash mezonlari
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	• Qayta aloqa berish amaliyoti haqida fikr yuritadi va sinfda qo‘llashga mo‘ljallangan samarali qayta aloqaning xususiyatlari ro‘yxatini tuzish ko’nikmasini shakllantirish; • O‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb etishning turli usullarini o‘rganish.

Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu bilan tanishtirish	5	Suhbat, tushuntirish	1-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Mashg‘ulotning mavzusiga yo’naltiruvchi savol berish.	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	2-slayd	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	- Baholash turlari; - Slaydlar bilan tushuntirish	10	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	3- slayd 1-ilova	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Grafik organayzer bilan ishlash; - Moslikni topish tarqatmasi yordamida muhokama	25	Guruhlarda ishlash	4-9-slaydlar 2-5-ilovalar	O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

	qilish; -Samarali qayta aloqa tarqatmasidan foydalanish; -Sizningcha eng mos tartib mashg'uloti.				
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo'yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg'ulot jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalar olish;	20	Suhbat, muhokama, tahlil		O'qituvchilar o'z tajribalarini o'rtoqlashadi va yangi g'oyalarni o'zlashtiradi.
6. Refleksiya	- O'z maktablarida hamkasblari bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini yaratish.	5	Refleksiya usullari	10-slayd	O'qituvchilar o'z faoliyatini baholaydi va o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	11-slayd	O'qituvchilar mashg'ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo'naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova

1-tarqatma material. Baholash turlari

Quyida berilgan grafik organayzerdagi ma’lumotdan foydalangan holda berilgan jadvalni to‘ldiring:



Avvaldan bilgan va o‘z tasdig‘ini topgan tushunchalarim	Men uchun yangi bo‘lgan narsalar

➢ _____ ➢ _____ ➢ _____	➢ _____ ➢ _____ ➢ _____

2-ilova

2-tarqatma material. Baholash vositalari: ko‘rsatmalar va kartochkalar

Har bir baholash vositasini uning mos ta’rifi berilgan kartochkaga moslashtiring.

Baholash vositalari:

Bo‘lim yakunidagi testlar

O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari

Chiqish chiptalari

Standartlashtirilgan imtihonlar

Loyihalar

Dars kuzatuvlari

Voqea-hodisalar qaydlari

Ta’riflari:

O‘qituvchilar o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishi hamda yakka tartibda va jamoada ishlashini kuzatadi.
O‘qituvchilar darsni kuzatish davomida olib boradigan qaydlari bo‘lib, ular o‘z ichiga o‘quvchilarning ma’lum xulq-atvorlarini, ko‘nikmalarini yoki vaqt davomida ma’lum natijalarga erishishini qayd etadi.
Barcha o‘quvchilarga bir xil savollar va bir xil baholash tizimiga ega bir xil tartibda beriladigan testlar. Ushbu testlar o‘quvchilarning ma’lum ko‘nikma yoki bilimlarni egallaganligini o‘lchaydi hamda natijalarni turli maktablar yoki guruhlararo taqqoslash imkonini beradi.
O‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxati yoki topshiriqlarni bajarish tartibi.
Yakuniy natija sifatida namoyish etish mumkin bo‘lgan mahsulotga ega hamkorlikda ishlash faoliyat turlari.
Yunit, bo‘lim yakunida o‘tkaziladigan test yoki imtihon.
O‘quvchilar dars so‘ngida bajaradigan tez va qisqa topshiriqlar. Bunda o‘quvchilar nimalarni o‘rganganini namoyish qilishadi. O‘qituvchilar ulardan keyingi bosqichlarni rejalashtirishda foydalanishi mumkin. Bu topshiriqlarga masalan savolga javob berish yoki qisqacha muqobil variantli test savollariga yoki to‘g‘ri/noto‘g‘ri javobli test savollariga javob berish mashqlarini kiritish mumkin.

2-tarqatma material. Baholash vositalari va ularning ta’riflari: tavsiya etilgan javoblar

Baholash vositasi	**Ta’rif**
Bo‘lim yakunidagi testlar	Yunit, bo‘lim yakunida o‘tkaziladigan test yoki imtihon.
O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari	O‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxati yoki topshiriqlarni bajarish tartibi.
Voqea-hodisalar qaydlari	O‘qituvchilar darsni kuzatish davomida olib boradigan qaydlari bo‘lib, ular o‘z ichiga o‘quvchilarning ma’lum xulq-atvorlarini, ko‘nikmalarini yoki vaqt davomida ma’lum natijalarga erishishini qayd etadi.
Chiqish chiptalari	O‘quvchilar dars so‘ngida bajaradigan tez va qisqa topshiriqlar. Bunda o‘quvchilar nimalarni o‘rganganini namoyish qilishadi. O‘qituvchilar ulardan keyingi bosqichlarni rejalashtirishda foydalanishi mumkin. Bu topshiriqlarga masalan savolga javob berish yoki qisqacha muqobil variantli test savollariga yoki to‘g‘ri/noto‘g‘ri javobli test savollariga javob berish mashqlarini kiritish mumkin.
Standartlashtirilgan imtihonlar	Barcha o‘quvchilarga bir xil savollar va bir xil baholash tizimiga ega bir xil tartibda beriladigan testlar. Ushbu testlar o‘quvchilarning ma’lum ko‘nikma yoki bilimlarni egallaganligini o‘lchaydi hamda natijalarni turli maktablar yoki guruhlararo taqqoslash imkonini beradi.
Loyihalar	Yakuniy natija sifatida namoyish etish mumkin bo‘lgan mahsulotga ega hamkorlikda ishlash faoliyat turlari.
Dars kuzatuvlari	O‘qituvchilar o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishi hamda yakka tartibda va jamoada ishlashini kuzatadi.

3-ilova

3-tarqatma material. Baholashning maqsadi. Jadvalda berilgan bo‘sh kataklarni o‘z g‘oyalaringiz bilan to‘ldiring.

Baholash vositasi	Formativ maqsad	Summativ maqsad
Bo‘lim yakunidagi testlar		Testda ko‘rsatilgan yakuniy natijalar o‘quvchilarga chorak so‘ngida beriladigan tabel yoki shunga o‘xshash boshqa hisobot hujjatlarida aks etadi.
O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari	O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan nazorat ro‘yxatlari bilan ishlar ekan, ular topshiriqni bajarishda belgilangan tartibga rioya qilgan yoki qilmaganliklarini qayta ko‘rib chiqishadi va kutilgan natijalarga erishgan yoki erishmaganliklarini ko‘rishadi. Ushbu baholash vositasi refleksiyani, o‘z-o‘zini baholashni va o‘z-o‘zini monitoring qilishni rag‘batlantiradi.	Huddi o‘sha nazorat ro‘yxatidan o‘qituvchilar baholash topshirig‘ini baholayotganda foydalanishi mumkin.
Voqea-hodisalar qaydlari	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan o‘quvchilarning erishayotgan natijalarini kuzatib borish uchun va kelgusidagi havozalash yoki tabaqalashtirish faoliyat turlariga aloqador qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin.	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan baholash davri yakunlarida hisobot hujjatlarida o‘z sharhlarini/izohlarini keltirishda asos sifatida foydalanishi mumkin.
Chiqish chiptalari		Bo‘lim, yunit so‘ngida o‘qituvchilar shu chiqish chiptalaridan foydalangan holda test savollarini tuzishi mumkin.
Standartlashtirilgan imtihonlar	O‘z ta’rifiga ko‘ra bu vosita summativ baholash hisoblanadi chunki bu orqali o‘quvchilarning natijalari o‘lchanadi va	

	ta’lim dasturining samaradorligiga baho beriladi.	
Loyihalar		Yakuniy mahsulotga qo‘yilgan baho davriy baholashdagi yakuniy baho sifatida qo‘yilishi mumkin.
Dars kuzatuvlari	O‘qituvchilar ushbu kuzatuvlaridan dars rejalariga o‘zgartirish kiritishda, o‘quvchilarni guruhlarga ajratishda va ularga qo‘shimcha yordam berishda foydalanishi mumkin.	

3-tarqatma material. Baholashning maqsadlari. Tavsiya etilgan javoblar

Baholash vositasi	Formativ maqsad	Summativ maqsad
Bo‘lim yakunidagi testlar	Test baholab bo‘lingandan so‘ng, o‘qituvchilar testlarni o‘quvchilarga qaytarishlari mumkin va ulardan test javoblariga o‘zgartirish kiritishlarini so‘rashi mumkin. Bu o‘quvchilar uchun foydali o‘rganish tajribasi bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z xatolari ustida ishlagani uchun qo‘shimcha ballar berishi mumkin.	Testda ko‘rsatilgan yakuniy natijalar o‘quvchilarga chorak so‘ngida beriladigan tabel yoki shunga o‘xshash boshqa hisobot hujjatlarida aks etadi.
O‘z-o‘zini baholash nazorat ro‘yxatlari	O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan nazorat ro‘yxatlari bilan ishlar ekan, ular topshiriqni bajarishda belgilangan tartibga rioya qilgan yoki qilmaganliklarini qayta ko‘rib chiqishadi va kutilgan natijalarga erishgan yoki erishmaganliklarini ko‘rishadi. Ushbu baholash vositasi refleksiyani, o‘z-o‘zini baholashni va o‘z-o‘zini monitoring qilishni rag‘batlantiradi.	Huddi o‘sha nazorat ro‘yxatidan o‘qituvchilar baholash topshirig‘ini baholayotganda foydalanishi mumkin.
Voqea-hodisalar qaydlari	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan o‘quvchilarning erishayotgan natijalarini kuzatib borish uchun va kelgusidagi havozalash yoki tabaqalashtirish faoliyat turlariga aloqador qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin.	O‘qituvchilar ushbu qaydlardan baholash davri yakunlarida hisobot hujjatlarida o‘z sharhlarini/izohlarini keltirishda asos sifatida foydalanishi mumkin.
Chiqish chiptalari	Chiqish chiptalari orqali olingan	Bo‘lim, yunit so‘ngida

	ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tuziladi va keyingi qadamlar/bosqichlar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda foydalaniladi: O‘quvchilar keyingi bosqichga o‘tishga tayyormi? O‘quvchilarga ayrim tushunchalarni qayta tushuntirish kerakmi? O‘quvchilar ayrim tushunchalarni takrorlashi lozimmi? O‘quvchilarning tushunishida qiyinchiliklar mavjudmi? Qayta o‘qitilishi kerak bo‘lgan narsalar mavjudmi?	o‘qituvchilar shu chiqish chiptalaridan foydalangan holda test savollarini tuzishi mumkin.
Standartlashtirilgan imtihonlar	O‘z ta’rifiga ko‘ra bu vosita summativ baholash hisoblanadi chunki bu orqali o‘quvchilarning natijalari o‘lchanadi va ta’lim dasturining samaradorligiga baho beriladi.	Ilgari foydalanilgan standartlashtirilgan testlardan dars davomida “mok test” (sinov test)lari sifatida foydalanish mumkin. O‘qituvchilar ushbu mok testlarda qanday natijaga erishayotganini qayd qilib borishi, shu asosida dars rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritishi va mavzularni qayta o‘tishi yoki o‘quvchilarga kerak bo‘lgan qo‘shimcha amaliyotni taqdim etishi mumkin.
Loyihalar	O‘qituvchilar jarayonni diqqat bilan monitoring qilib borishadi va o‘z kuzatuvlari hamda qaydlaridan o‘quvchilarning erishayotgan natijalarini kuzatib borishda, rejaga o‘zgartirish kiritish va ularga yo‘nalish berishda foydalanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga loyihaning borishi haqida tez-tez qayta aloqa berib boradi va ularga yo‘nalish berish maqsadida nazorat ro‘yxatlari hamda	Yakuniy mahsulotga qo‘yilgan baho davriy baholashdagi yakuniy baho sifatida qo‘yilishi mumkin.

	vaqt jadvalini taqdim etib turadi.	
Dars kuzatuvlari	O‘qituvchilar ushbu kuzatuvlaridan dars rejalariga o‘zgartirish kiritishda, o‘quvchilarni guruhlarga ajratishda va ularga qo‘shimcha yordam berishda foydalanishi mumkin.	Voqea-hodisalar qaydi singari, o‘qituvchilar o‘z kuzatuvlaridan chorak so‘ngidagi baholash bo‘yicha hisobotlarida izohlar va tushuntirishlar yozishda foydalanishi mumkin.

4-ilova.

4-tarqatma material. Samarali qayta aloqa ... bo‘ladi.

1. Xulq-atvorga asoslanadi, shaxsga emas. –	Topshiriqni bajaruvchiga emas, topshiriqning o‘ziga tegishli bo‘ladi.
2. Muvozanatlashgan bo‘ladi. –	Kuchli tomonlarga va tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan tomonlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
3. Aniq bo‘ladi. –	Misollarni o‘z ichiga oladi va muqobillarni taklif etadi.
4. Realistik bo‘ladi. –	O‘zgartirish mumkin bo‘lgan narsalarga asoslanadi.
5. O‘z vaqtida beriladi. –	To‘g‘ri va mos vaqtda taqdim etiladi.
6. Davomli bo‘ladi. –	Ko‘p hollarda butun jarayon davomida berib boriladi.
7. Hurmat bilan taqdim etiladi. –	Qayta aloqa o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini inobatga oladi.
8. Maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. –	O‘quv faoliyati natijalari va

	topshiriqning maqsadiga qaratilgan bo‘ladi.
9. Seziladigan bo‘ladi. –	Aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
10. Amalga oshiriladigan bo‘ladi. –	Natijani yaxshilashga qaratilgan harakatlarga misollar beriladi.
11. Do‘stona va tushunarli bo‘ladi. –	Tushunish oson bo‘ladi va haddan ziyod murakkab bo‘lmaydi.
12. Izchil bo‘ladi. –	Stabil va aniq tarzda taqdim etib boriladi.

HANDOUT 2.5 E
EFFECTIVE FEEDBACK IS...



EFFECTIVE FEEDBACK IS...



Samarali qayta aloqa ...

5-tarqatma material: Quyida berilgan bosqichlarni Sizningcha eng mos tartibda joylashtiring.

Yaxshilanishi kerak bo‘lgan bir nechta yo‘nalishlarni tavsiya qiling. Qayta aloqaning ushbu qismini uddalasa bo‘ladigan, bajarsa bo‘ladigan va aniq bo‘lishini ta’minlashni yoddan chiqarmang (yaxshilanishi kerak bo‘lgan jabhalar haddan ziyod ko‘p bo‘lmasligi kerak).
O‘quvchini qayta ko‘rib chiqish jarayoni xususida refleksiv mushohoda qilishga undang. Bunda o‘quvchidan qanday o‘zgartirish kiritilganini va bu o‘zgarishlar yakuniy natija/mahsulotni qay tarzda yaxshilashini tushuntirib berishni so‘rang.
O‘quvchi berilgan ish/topshiriqni bajarishda erishgan bir nechta yutuqlari/kuchli tomonlarini ta’kidlab o‘ting.
Berilgan qayta aloqaga asoslangan holda o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqishi uchun o‘quvchiga vaqt bering.
O‘quvchiga uning ishi bo‘yicha ikkita yoki uchta savol bering. O‘quvchidan aniqlashtiruvchi yoki yo‘naltiruvchi savollarni so‘rashingiz mumkin. Masalan, “... deyish orqali nimani nazarda tutyapsan?”, “Bu nimani anglatishini anglay olmayapman. Buni boshqacha tarzda tushuntirib bera olmaysanmi?”. Yo‘naltiruvchi savollarga misol sifatida “Bu natijaga qanday erishding?”, “Bu

yerga yana nimani qo‘shimcha qilish mumkin deb o‘ylaysan?” kabilar misol bo‘la oladi.

5-tarqatma material. Tavsiya etilgan javoblar.

Qadamlar/bosqichlar ketma-ketligi:

1. O‘quvchi berilgan ish/topshiriqni bajarishda erishgan bir nechta yutuqlari/kuchli tomonlarini ta’kidlab o‘ting.
2. O‘quvchiga uning ishi bo‘yicha ikkita yoki uchta savol bering. O‘quvchidan aniqlashtiruvchi yoki yo‘naltiruvchi savollarni so‘rashingiz mumkin. Masalan, “... deyish orqali nimani nazarda tutyapsan?”, “Bu nimani anglatishini anglay olmayapman. Buni boshqacha tarzda tushuntirib bera olmaysanmi?”. Yo‘naltiruvchi savollarga misol sifatida “Bu natijaga qanday erishding?”, “Bu yerga yana nimani qo‘shimcha qilish mumkin deb o‘ylaysan?” kabilar misol bo‘la oladi.
3. Yaxshilanishi kerak bo‘lgan bir nechta yo‘nalishlarni tavsiya qiling. Qayta aloqaning ushbu qismini uddalasa bo‘ladigan, bajarsa bo‘ladigan va aniq bo‘lishini ta’minlashni yoddan chiqarmang (yaxshilanishi kerak bo‘lgan jabhalar haddan ziyod ko‘p bo‘lmasligi kerak).
4. Berilgan qayta aloqaga asoslangan holda o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqishi uchun o‘quvchiga vaqt bering.
5. O‘quvchini qayta ko‘rib chiqish jarayoni xususida refleksiv mushohoda qilishga undang. Bunda o‘quvchidan qanday o‘zgartirish kiritilganini va bu o‘zgarishlar yakuniy natija/mahsulotni qay tarzda yaxshilashini tushuntirib berishni so‘rang.

2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik” moduli

2-mavzu. O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash – kasbiy rivojlanish asosi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad:

tinglovchilar o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari haqida bilimlari mustahkamlanadi;

o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish, KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish: ta’rifi, xususiyatlarini topshiriqlar orqali izohlaydilar;

kichik guruhlarda ishlash natijasida maktabda jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar

Mashg‘ulot kichik guruhlarda ishlash metodi yordamida tashkil qilinadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.

Quyida keltirilgan nazariy materialni o‘rganib chiqing va quyidagi mavzular bo‘yicha guruh ishi tayyorlang va uni namoyish qiling.

1-guruh uchun topshiriq. O‘zingiz o‘tkazgan darslardan birini tanlang va uning samaradorligini tahlil qiling. Dars jarayonidagi asosiy qadamlarni va o‘quvchilarning javoblarini baholang.

- Dars maqsadi va uning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi qanday bo‘ldi?
- Qaysi metodlar samarali bo‘ldi? Nima uchun?
- O‘quvchilarning faoliyatini qanday baholadingiz?
- O‘zingizning o‘qitish usulingizda qanday kamchiliklarni aniqladingiz va ularni qanday tuzatish mumkin?

2-guruh uchun topshiriq. O‘z faoliyatingizni tahlil qilib, o‘zingiz uchun malaka oshirish rejasini tuzing. Bu reja quyidagi punktlarni o‘z ichiga olishi kerak:

Qaysi sohalarda o‘z ustimda ishlashim kerakligini aniqlang.

Yangi pedagogik metodlarni qanday o‘rganish kerakligini yozing.

O‘quvchilar bilan samarali aloqani qanday mustahkamlash mumkinligini rejalashtiring.

Malaka oshirish kurslari, seminarlar yoki treninglarda qatnashish imkoniyatlarini aniqlang.

3-guruh uchun topshiriq. O‘qituvchilar guruhida pedagogik hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli reja tuzing. Reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Qisqa muddatda o‘qituvchilar o‘rtasida qanday hamkorlikni boshlash mumkin (masalan, o‘quvchilarning bilimini baholash, dars samaradorligini o‘rganish)?
- Uzoq muddatli hamkorlikning maqsadlari va vazifalari qanday bo‘ladi?
- Hamkorlikni baholash va takomillashtirish uchun qanday mezonlar va vositalardan foydalaniladi?

4-guruh uchun topshiriq. O‘zingizning pedagogik faoliyatingizni tahlil qiling. O‘z faoliyatingizni baholashda quyidagi savollarga javob bering:

O‘zingizni qaysi sohalarda kuchli va zaif deb hisoblaysiz? (Masalan, darsni tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashuv, pedagogik metodlar va boshqalar)

O‘quvchilardan qanday fikr-mulohazalar oldingiz? Ularning o‘zlashtirish darajasi qanday?

O‘quvchilarga ta’lim berishda qanday muammolarni duch keldingiz? Bu muammolarni qanday hal qilishni o‘yladingiz?

Amaliy mashg‘ulot uchun nazariy material

Reja

1. O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari.
2. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi.
3. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish.

KIRISH

Ta’lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyati, uning o'ziga bo'lgan talab va yondashuvlariga asoslanadi. Har bir o'qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, baholashi zarur, chunki bu jarayon uning professional o‘sishi va ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o'zgaruvchan va dinamik sharoitda rivojlanib bormoqda, shuning uchun o'qituvchilar, pedagogik uslublarini, metodlarini va yondashuvlarini doimiy ravishda tahlil qilib, baholab borishlari muhimdir. O‘z faoliyatini tahlil qilish – bu nafaqat o‘z ishini baholash, balki xatolarni aniqlash, kuchli tomonlarni kuchaytirish va kamchiliklarni bartaraf etishning samarali usulidir. Shuningdek, bu jarayon o'qituvchiga o'zining pedagogik yondashuvlarini yangilash, innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

Shu o‘rinda, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonining kasbiy rivojlanishdagi o‘rni haqida gapirganda, bu jarayonning qanday asosiy elementlarga ega ekanligini va u qanday qilib o‘qituvchining malakasini oshirishga yordam berishini ko‘rib chiqamiz. Har bir o'qituvchining o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholay olish va uning natijalarini tahlil qilish orqali o‘z kasbiy rivojlanishini qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

1. O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati — bu o‘qituvchining o‘z pedagogik jarayonini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash va shu asosda o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchiga

oʻzining kuchli tomonlarini tan olish va zaif jihatlarini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash uchun zarur oʻzgarishlarni kiritish imkonini yaratadi.

Oʻzini-oʻzi baholashning asosiy maqsadi — oʻqituvchining oʻz ishini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va keyingi darslarda yaxshilanishlarga erishishdir. Shuningdek, oʻzini-oʻzi baholash jarayoni oʻqituvchining oʻz ustida ishlashini ta'minlab, pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

Oʻz faoliyatini baholash turli yoʻnalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Quyida ba'zi asosiy baholash turlarini koʻrib chiqamiz:

Formativ baholash: Bu baholash turi oʻqituvchining dars jarayonida oʻquvchilarning rivojlanishini va oʻzgarishlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Oʻqituvchi bu baholash orqali oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini kuzatadi va darsning samaradorligini aniqlaydi. Formativ baholash oʻqituvchiga oʻz faoliyatini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

Summativ baholash: Bu baholash turi oʻqituvchining darsdan soʻng oʻquvchilarning umumiy natijalarini baholashga yoʻnaltirilgan. Bu baholash oʻqituvchining dars maqsadlariga qanchalik erishganini va oʻquvchilarning bilim darajasini oʻlchashga yordam beradi.

Reflektiv baholash: Oʻqituvchi oʻz faoliyatini baholashda refleksiya (oʻz-oʻzini tahlil qilish) usulini qoʻllashi mumkin. Bu turda oʻqituvchi oʻzi qanday dars oʻtganini, nimalar yaxshi chiqqanini, qanday kamchiliklarni sezganini tahlil qilib, kelgusida qanday yaxshilanishlar qilish kerakligini aniqlaydi.

Koʻrsatkichli baholash: Bu baholash turi oʻqituvchining oʻz faoliyatini aniq koʻrsatkichlar (masalan, oʻquvchilarning muvaffaqiyat darajasi, darslar davomida oʻquvchilarning ishtiroki, oʻqituvchi tomonidan qoʻllanilgan metodlar) boʻyicha baholashdir. Bu koʻrsatkichlar oʻqituvchining pedagogik faoliyatini aniq oʻlchash va tahlil qilish imkonini beradi.

Oʻz faoliyatini baholash vositalari

Oʻzini-oʻzi baholash jarayonini samarali tashkil etish uchun turli vositalardan foydalanish mumkin. Bu vositalar oʻqituvchiga oʻz faoliyatini aniq va tizimli baholash imkonini yaratadi. Quyida oʻz faoliyatini baholashda foydalanish mumkin boʻlgan vositalar keltirilgan:

Oʻzini-oʻzi baholash jurnali: Bu vosita oʻqituvchiga har bir darsdan keyin oʻz faoliyatini yozma ravishda baholash imkonini beradi. Oʻqituvchi dars davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni, muvaffaqiyatlarni va kelgusidagi darslar uchun tavsiyalarni kiritishi mumkin. Bu jurnal oʻqituvchining oʻz-oʻzini tahlil qilish va rivojlanish yoʻlini kuzatib borishda yordam beradi.

Oʻzini-oʻzi baholash shakllari: Dars jarayonida oʻqituvchi oʻz faoliyatini baholash uchun turli shakllarni (masalan, maxsus savollar, oʻz faoliyatini tahlil qilish uchun testlar) qoʻllashi mumkin. Bu shakllar oʻqituvchiga dars jarayonidagi muhim jihatlarni aniqlash va baholashda yordam beradi.

Video tahlil: Oʻqituvchi darslarini video formatda yozib olib, keyinchalik oʻzi tomonidan baholashi mumkin. Bu usul oʻqituvchiga oʻzining dars berish uslublarini tahlil qilish, nutqini va darsda oʻquvchilar bilan aloqasini

yaxshilashga yordam beradi.

Kengaytirilgan o‘qituvchi baholash tizimi (360 daraja baholash): Bu tizimda o‘qituvchining faoliyati nafaqat o‘qituvchi tomonidan, balki o‘quvchilar, hamkasblar va boshqaruvchilar tomonidan ham baholanadi. Bu yondashuv o‘qituvchining ko‘proq nuqtai nazardan baholanishini ta'minlab, yanada kengroq va aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zini-o‘zi baholashning ahamiyati

O‘zini-o‘zi baholash o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim qismlaridan biridir. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali u nafaqat o‘zining kuchli tomonlarini topadi, balki kamchiliklarni bartaraf etish va yangi maqsadlar belgilash uchun zarur choralar ko‘radi. Bu jarayon o‘qituvchining o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishining ko‘rsatkichi bo‘lib, uning pedagogik malakasini oshirishga yordam beradi.

O‘zini-o‘zi baholash orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini yanada samarali va tizimli amalga oshirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi. O‘zini-o‘zi baholash, shuningdek, o‘qituvchining o‘ziga nisbatan mas'uliyatni oshiradi va uni professional rivojlanishga undaydi.

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati — bu o‘qituvchining o‘z ishini tahlil qilish va rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon, o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, yangi maqsadlar belgilash va o‘zining kasbiy o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash uchun zarur vositalarni taklif etadi. Turli baholash turlari va vositalari yordamida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini samarali ravishda baholab, o‘z malakalarini oshirishi va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim bera olishadi.

2. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

“Kasbiy rivojlanish kuni” – o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil

qilish, ularga zarur metodik yordam koʻrsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari oʻtkaziladigan soatlar;

mentor-oʻqituvchilar – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish uchun fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida tanlab olingan yuqori malakali oʻqituvchilar;

ishtirokchilar – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlariga jalb qilingan umumiy oʻrta ta’lim muassasalari fan oʻqituvchilari;

master-trenerlar – mentor-oʻqituvchilarga metodik jihatdan koʻmak beruvchi malakali mutaxassislar; tayanch maktablar – “Kasbiy rivojlanish kuni” oʻquv mashgʻulotlari oʻtkaziladigan umumiy oʻrta ta’lim muassasalari;

elektron qaydnoma – oʻqituvchilarning tayanch maktablardagi “Kasbiy rivojlanish kuni” va umumiy oʻrta ta’lim maktablaridagi “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlariga ishtirok etish davomati va faolligi qayd etiladigan ma’lumotlar bazasi;

ekspertlar guruhi – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari uchun dasturlar va oʻquv materiallariini ishlab chiqish boʻyicha malakali pedagog va mutaxassislardan shakllantirilgan guruh;

koordinator – umumiy oʻrta ta’lim maktabi direktorining “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga umumiy rahbarlik va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan oʻrinbosari;

yetakchi oʻqituvchi – “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarida ishtirok etadigan va umumiy oʻrta ta’lim maktablarida fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga mas’ul boʻlgan tajribali faol oʻqituvchi yoki fan metodika birlashmasi rahbari.

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining **maqsadi** oʻqituvchilarga kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining asosiy **vazifalari** quyidagilardan iborat:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilgʻor tajribalarini umumiy oʻrta ta’lim muassasalariga joriy qilish;

oʻqituvchilarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarini oʻzlashtirish uchun sharoit yaratish;

oʻqituvchilarning oʻzi ustida mustaqil ishlashi va ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganishini tashkil etish;

oʻqituvchilarni fan va uni oʻqitish metodikasiga doir yangiliklar bilan tanishtirish; oʻqituvchilarga oʻzaro tajriba almashish, shu jumladan, “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;

oʻqituvchilarning oʻzaro dars kuzatishi, refleksiv amaliyoti hamda maktab negizida malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratib berish.

Oʻqituvchilar orasida samarali hamkorlik, nafaqat oʻz faoliyatlarini yaxshilashga, balki butun ta’lim muassasalarining rivojlanishiga ham katta ta'sir koʻrsatadi. Zamonaviy ta’lim tizimida oʻqituvchilarning birgalikda ishlashi, oʻz tajribalarini baham koʻrishi va oʻzaro oʻrganishlari juda muhimdir.

O‘qituvchilar hamkorligi deganda, o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish, pedagogik yondashuvlar va metodlarni muhokama qilish, bir-biriga yordam berish va umumiy maqsadlar yo‘lida birgalikda ishlash jarayoni tushuniladi. Bu jarayon, o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini tahlil qilish, malakalarini oshirish va yangi pedagogik metodlarni o‘zlashtirishlariga yordam beradi. O‘qituvchilarning birgalikda ishlashi, o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim taqdim etishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning hamkorlikda ishlashi kasbiy rivojlanishning samarali usuli hisoblanadi. Bunday hamkorlikning bir necha afzalliklari mavjud:

Tajriba almashish: O‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashib, yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘qituvchilarga innovatsion uslublarni joriy etish, o‘quvchilarga samarali ta’lim berish uchun yangi g‘oyalar va yechimlarni topish imkonini beradi.

Pedagogik ko‘nikmalarni oshirish: O‘qituvchilar o‘zaro o‘rganish jarayonida, bir-birining ishlash uslublarini kuzatib, ko‘nikmalarini oshirishadi. Bu o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘qitish usullarini yangilashga yordam beradi. Hamkorlik davomida o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal etishga harakat qiladilar.

Motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash: O‘qituvchilar o‘zaro hamkorlikda bir-birini rag‘batlantirib, o‘z maqsadlariga erishishda bir-birini qo‘llab-quvvatlaydilar. Bu o‘qituvchining ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashga undaydi.

Yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarni joriy etish: Hamkorlik o‘qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni o‘z faoliyatiga qo‘llash imkonini beradi. Masalan, digital texnologiyalarni, interaktiv darslarni yoki guruhda ishlashni o‘zaro tajriba almashish orqali o‘rganish mumkin. Bu ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchilar hamkorligi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ularning ba'zilari quyidagicha:

Pedagogik guruhlar: O‘qituvchilar biror mavzu yoki yo‘nalish bo‘yicha guruhlar tuzib, birgalikda darslarni rejalashtiradilar, metodik tavsiyalar ishlab chiqadilar va o‘zaro tajriba almashadilar. Bu guruhlar muayyan mavzu bo‘yicha hamkorlik qiladilar, o‘quvchilarga eng samarali yondashuvni topishga harakat qiladilar.

Master-klasslar va seminarlar: O‘qituvchilar o‘z bilim va tajribalari bilan o‘rtoqlashish uchun seminarlar va master-klasslar tashkil etadilar. Bu, o‘qituvchilarga yangi pedagogik usullarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Pedagogik ko‘ngillilar: O‘qituvchilar o‘zaro maslahatlar berib, yangi pedagogik metodlar va yondashuvlarni joriy etishga ko‘maklashadilar. O‘qituvchilar o‘zlarining professional muammolarini birgalikda hal qilishga harakat qiladilar.

Online hamkorlik: Yangi texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar virtual platformalarda hamkorlik qiladilar. Onlayn guruhlar, forumlar, vebinarlar orqali

o‘qituvchilar bir-biri bilan o‘rtoqlashib, yangi yondashuvlar va metodlarni muhokama qilishadi.

O‘qituvchilar orasida samarali hamkorlikni tashkil etishda quyidagi shartlar muhimdir:

Ochiq va samimiy muloqot: O‘qituvchilar o‘rtasida ishonchli va ochiq muloqot bo‘lishi kerak. Fikr almashish, bir-birini tinglash va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olish samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

Hamkorlikda maqsadlar belgilash: O‘qituvchilar hamkorlikni boshlashdan oldin umumiy maqsadlar va vazifalarni belgilab olishlari zarur. Har bir o‘qituvchi o‘z rolini tushunib, aniq maqsad sari intilish kerak.

Vaqtni samarali boshqarish: O‘qituvchilar orasida samarali hamkorlikni tashkil etish uchun vaqtni yaxshi rejalashtirish zarur. O‘qituvchilar darslardan tashqari, qo‘shimcha vaqt ajratib, hamkorlik qilishlari mumkin.

O‘zaro hurmat va yordam: Hamkorlikda ishtirok etayotgan o‘qituvchilar bir-birining fikriga hurmat bilan yondoshuvchi, yordam ko‘rsatishga tayyor bo‘lishlari zarur. Bu o‘zaro ishonchni oshiradi va hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi — bu ta’lim sifatini oshirishning muhim vositasidir. O‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashish, yangi pedagogik yondashuvlar o‘rganish va umumiy maqsadlar yo‘lida birgalikda ishlash orqali nafaqat o‘z malakalarini oshirishadi, balki butun ta’lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo‘shadilar. Samarali hamkorlik ta’lim jarayonini yanada yuqori darajaga ko‘tarishga yordam beradi va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

3. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish.

Har bir o‘qituvchi, o‘zining pedagogik faoliyatini yanada yaxshilash, yangi metodlarni o‘zlashtirish va ta’lim sifatini oshirish yo‘lida o‘z ustida ishlashni doimiy ravishda davom ettirishi zarur. Bunday ishlar faqat o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishga yordam bermaydi, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

O‘z ustida ishlashning ahamiyati

O‘z ustida ishlash o‘qituvchining o‘z malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishining asosiy qismidir. Bu jarayon quyidagi afzalliklarga ega:

Kasbiy o‘sish: O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilish, metodik yondashuvlarni yangilash va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish orqali o‘z malakalarini oshiradilar.

Innovatsion yondashuvlar: O‘z ustida ishlash, o‘qituvchiga innovatsion pedagogik metodlarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Sifatli ta’lim: O‘qituvchilar o‘zlarini takomillashtirgan sari, ular o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkoniyatini kengaytiradilar. O‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishda o‘qituvchining doimiy rivojlanishi katta rol o‘ynaydi.

2. O‘z ustida ishlash rejasining tuzilishi

O‘z ustida ishlash rejasini tuzishda o‘qituvchilar quyidagi bosqichlarga e’tibor berishlari kerak:

a. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Reja tuzishdan oldin, o‘qituvchi o‘zining hozirgi kasbiy darajasini tahlil qilishi zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi quyidagilarni o‘rganishi kerak:

O‘z pedagogik faoliyatini baholash: Darslar, metodik yondashuvlar, o‘quvchilarga bo‘lgan yondoshuvlar va ta’lim dagi samaradorlikni tahlil qilish.

Kamchiliklarni aniqlash: O‘qituvchi o‘zining kuchli tomonlari bilan birga, zaif tomonlarini ham aniqlab olishga harakat qilishi kerak. Bu jarayon, kelajakda o‘zini rivojlantirish uchun muhim ma'lumot beradi.

O‘quvchilarning fikrini olish: O‘quvchilardan darslar haqida fikr-mulohaza olish, ularning o‘qish uslubiga bo‘lgan munosabatini tushunish.

b. Maqsadlar qo‘yish

O‘z ustida ishlash uchun aniq va o‘lchovli maqsadlar belgilash juda muhimdir. Maqsadlar quyidagi mezonlarga mos bo‘lishi kerak:

Aniq: O‘qituvchi nima qilishni istayotganini aniq ifodalashi kerak. Masalan, “Yangi metodlarni o‘rganish” yoki “O‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish”.

O‘lchovli: Maqsadlar o‘lchovli bo‘lishi kerak, ya'ni qanday qilib o‘zgarishlar kiritilishini va ularning qanday natijalarga olib kelishini aniqlash mumkin bo‘lishi zarur.

Rejalashtirilgan va vaqtli: Maqsadlar belgilangan muddat ichida amalga oshirilishi lozim. Rejaning har bir qadamiga vaqt ajratilishi kerak.

c. Rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash

O‘z ustida ishlash rejasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashi kerak. Bu yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Pedagogik metodlar: Yangi pedagogik metodlarni o‘rganish, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish.

Texnologiyalar: Ta’lim da zamonaviy texnologiyalarni, masalan, onlayn ta’lim platformalari, interaktiv ta’lim vositalarini o‘rganish va qo‘llash.

O‘quvchilarga bo‘lgan yondashuv: O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, individual yondoshuvlarni joriy etish.

Shaxsiy rivojlanish: O‘zining shaxsiy va professional rivojlanishi uchun malaka oshirish kurslariga qatnashish, konferensiyalar, seminarlar va master-klasslarda ishtirok etish.

d. Amaliyotga joriy etish va natijalarni tahlil qilish

Reja tuzish va maqsadlarni belgilashdan so‘ng, ularni amalda qo‘llash muhimdir. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘z rejasini amalga oshirish uchun:

Yangi metodlarni amaliyotda sinab ko‘rish.

O‘quvchilar bilan ishlash usullarini o‘zgartirish va samaradorligini kuzatish.

Natijalarni baholash va zarurat tug‘ilganda o‘zgarishlar kiritish.

Amaliyotdan olingan natijalar o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini baholashga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘z faoliyatining samaradorligini tahlil qiladi va kelajakda amalga oshirishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydi.

e. O‘zini-o‘zi baholash

O‘z ustida ishlash rejasining yakuniy qismida o‘qituvchi o‘zini-o‘zi baholashni amalga oshirishi kerak. Bu baholash quyidagi savollarga javob berishga asoslanadi:

O‘zimning pedagogik faoliyatimda qanday o‘zgarishlar kiritdim?

Qaysi metodlar samarali bo‘ldi?

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi qanday o‘zgardi?

O‘z ustimda ishlashni davom ettirish uchun qanday yangi maqsadlar belgilashim kerak?

O‘z ustida ishlash rejasini tuzish o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun zaruriy bosqichdir. Bu jarayon o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, samarali metodlarni o‘rganish, o‘quvchilarga individual yondashuvni joriy etish va doimiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Reja tuzish va unga rioya qilish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik faoliyatlarini yanada takomillashtiradilar va o‘quvchilarga yanada sifatli ta’lim berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil “ 7 ”-avgustdagi 246-son buyrug‘i

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**				
O‘quv moduli	**2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik”**				
Mavzu	**O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash – kasbiy rivojlanish asosi**				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarga o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari ahamiyatini tushuntirish; • o‘qituvchilarda KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash; • o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	O‘qituvchilarga o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-19- slaydlar	O‘qituvchilar o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz

	aniqlashning samarali usul va vositalari ahamiyatini tushuntirish; o‘qituvchilarda KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash; o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish ko‘nikma-larini rivojlantirish.				tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari ahamiyatini, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilishni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga mavzu yuzasidan topshiriqlar berish.	35	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 20-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	10	Suhbat, muhokama, tahlil	20-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “5x5 metod” (5 ta savolga 5 daqiqada javob berish) orqali xulosa qilish. ծ Darsda qanday yangi	5	Refleksiya usullari	21-slayd	Bu metod, tinglovchilarga o‘rganilgan materialni tezda tahlil qilish va o‘z fikrlarini samarali ifodalash

	bilim oldim? ᵒ Bu bilimni amaliyotda qanday qo‘llashim mumkin? ᵒ O‘rganilgan materialni tushunish uchun qanday qo‘shimcha resurslar kerak? ᵒ Bu darsda eng ko‘p qiyinchilikni qaysi qismda his qildim? ᵒ Darsdan keyin qanday yangi savollar yuzaga keldi?				imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	21-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

1. Sizning o‘qituvchilikdagi eng katta kuchli tomonlaringiz nima?
2. O‘zingizni kuchsiz tomonlaringizni qanday aniqlaysiz?
3. Kuchli tomonlaringizni rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni qo‘llaysiz?
4. Kuchsiz tomonlaringizni yaxshilash uchun qanday qadamlar tashlamoqdasiz?

2- ilova. 1-tarqatma material.

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi. Avval guruhlar 1-tarqatma asosida fikr mulohaza beradi, so‘ng guruh 3-ilovadagi savollarga asoslanib o‘z faoliyati haqida fikr mulohazasini beradi.

1-guruh uchun topshiriq. O‘zingiz o‘tkazgan darslardan birini tanlang va uning samaradorligini tahlil qiling. Dars jarayonidagi asosiy qadamlarni va o‘quvchilarning javoblarini baholang.

- Dars maqsadi va uning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi qanday bo‘ldi?
- Qaysi metodlar samarali bo‘ldi? Nima uchun?
- O‘quvchilarning faoliyatini qanday baholadingiz?
- O‘zingizning o‘qitish usulingizda qanday kamchiliklarni aniqladingiz va ularni qanday tuzatish mumkin?

2-guruh uchun topshiriq. O‘z faoliyatingizni tahlil qilib, o‘zingiz uchun malaka oshirish rejasini tuzing. Bu reja quyidagi punktlarni o‘z ichiga olishi kerak:

Qaysi sohalarda o‘z ustimda ishlashim kerakligini aniqlang.

Yangi pedagogik metodlarni qanday o‘rganish kerakligini yozing.

O‘quvchilar bilan samarali aloqani qanday mustahkamlash mumkinligini rejalashtiring.

Malaka oshirish kurslari, seminarlar yoki treninglarda qatnashish imkoniyatlarini aniqlang.

3-guruh uchun topshiriq. O‘qituvchilar guruhida pedagogik hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli reja tuzing. Reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Qisqa muddatda o‘qituvchilar o‘rtasida qanday hamkorlikni boshlash mumkin (masalan, o‘quvchilarning bilimini baholash, dars samaradorligini o‘rganish)?
- Uzoq muddatli hamkorlikning maqsadlari va vazifalari qanday bo‘ladi?
- Hamkorlikni baholash va takomillashtirish uchun qanday mezonlar va vositalardan foydalaniladi?

4-guruh uchun topshiriq. O‘zingizning pedagogik faoliyatingizni tahlil qiling. O‘z faoliyatingizni baholashda quyidagi savollarga javob bering:

O‘zingizni qaysi sohalarda kuchli va zaif deb hisoblaysiz? (Masalan, darsni tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashuv, pedagogik metodlar va boshqalar)

O‘quvchilardan qanday fikr-mulohazalar oldingiz? Ularning o‘zlashtirish darajasi qanday?

O‘quvchilarga ta'lim berishda qanday muammolarni duch keldingiz? Bu muammolarni qanday hal qilishni o‘yladingiz?

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	Afzalliklari

2-mavzu. O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash – kasbiy rivojlanish asosi

(*2 soat amaliy mashg‘ulot*)

O‘qituvchilikdagi eng katta kuchli tomonlaringizni ayting?
O‘zingizni kuchsiz tomonlaringizni qanday aniqlaysiz?
Kuchli tomonlaringizni rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni qo‘llaysiz?
Kuchsiz tomonlaringizni yaxshilash uchun qanday qadamlar tashlamoqdasiz?

Reja:

1. O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari
2. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi
3. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: mohiyati va ahamiyati

O‘zini-o‘zi baholash - o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash jarayoni. Bu jarayon o‘qituvchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tan olish imkonini beradi.

O‘zini-o‘zi baholash jarayonining tamoyillari

Ob’ektivlik

Baholashda sub’ektivlikdan xoli bo‘lish va o‘zning kuchli va zaif tomonlarini tan olish.

Doimiylik

O‘zini-o‘zi baholashni muntazam ravishda olib borish va o‘z faoliyatini doimiy ravishda kuzatib borish.

Samaradorlik

Baholashning natijalariga asoslanib o‘zining kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish.

O‘zini-o‘zi baholashning turlari va vositalari

Darsni tahlil qilish

O‘tkazilgan darsni tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash.

O‘quvchilar bilan muloqot

O‘quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikr-mulohazalarini olish va o‘zining ta’lim uslubini takomillashtirish.

O‘zaro baholash

Boshqa o‘qituvchilar bilan darslarini tahlil qilish, ularning tajribalaridan foydalanish.

Portfolio

O‘zining professional faoliyatini aks ettiruvchi portfolio yaratish va uni doimiy ravishda yangilab borish.

O‘zning kuchli tomonlarini aniqlash usullari

1 **O‘z faoliyatini tahlil qilish**

O‘tkazilgan darslar, tayyorlangan materiallar va o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan muloqotni tahlil qilish.

2 **Boshqalarning fikr-mulohazalarini olish**

O‘quvchilar, hamkasblar va rahbarlardan o‘zining faoliyati haqida fikr-mulohazalarini olish.

3 **O‘ziga nisbatan halollik**

O‘zining kamchiliklarini tan olish va ularni bartaraf etishga intilib, o‘zining kuchli tomonlarini mustahkamlash.

O‘zining kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usullari

Fikr-mulohazalar

O‘quvchilar, hamkasblar va rahbarlardan o‘zining faoliyati haqida fikr-mulohazalarini olish.

Kuzatish

O‘zining darslarini videoga yozib olish va keyinchalik uni tahlil qilish.

O‘zini-o‘zi tahlil qilish

O‘zining faoliyatini sinchiklab tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlash.

O‘zini-o‘zi baholashning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ta’siri



Ishonch

O‘ziga ishonchni kuchaytirish va o‘z imkoniyatlarini to‘liqroq anglash.

Rivojlanish

O‘zining kamchiliklarini bartaraf etish va kuchli tomonlarini rivojlantirish.

Samaradorlik

O‘zining faoliyatini samaraliroq tashkil etish va o‘quvchilarga sifatli ta'lim berish.

Professionallik

Kasbiy mahoratini oshirish va o‘zining professionallik darajasini yuksaltirish.

O‘qituvchining o‘zini-o‘zi baholash faoiliyatini tashkil etish

1. O‘zini-o‘zi baholash maqsadlarini aniqlash.
2. O‘zini-o‘zi baholashning turlari va vositalarini tanlash.
3. O‘zini-o‘zi baholash jarayonini rejalashtirish.
4. O‘zini-o‘zi baholashni olib borish va natijalarni tahlil qilish.
5. O‘zining kasbiy rivojlanish rejalarini tuzish.

O‘qituvchilar hamkorligi: samarali ta’limning kaliti

O‘qituvchilar orasidagi samarali hamkorlik nafaqat o‘z faoliyatlarini yaxshilashga, balki butun ta’lim muassasalarining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’limda hamkorlikning muhimligi

O‘zaro tajriba almashish

O‘qituvchilar turli o‘quv metodlarini muhokama qilishlari va eng samarali yondashuvlarni aniqlashlari mumkin.

Yangi g‘oyalarni o‘rganish

Ular o‘zaro o‘rganish orqali o‘z bilimlarini kengaytirishlari va yangi o‘quv resurslarini baham ko‘rishlari mumkin.

O‘qituvchilar hamkorligining mohiyati

O‘zaro tajriba almashish

Birgalikda o‘quv dasturlari va materiallarni ishlab chiqish, pedagogik metodlarni muhokama qilish.

O‘quvchilarga yordam berish

O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, muvaffaqiyatli o‘rganish uchun qo‘llab-quvvatlash.

Kasbiy rivojlanish

O‘qituvchilarning malakasini oshirish, yangi o‘quv texnologiyalari va pedagogik yondashuvlarni o‘rganish.

O‘zaro yordam va hamjihatlik

1. Qiyin o‘quvchilar bilan ishlashda, o‘zaro yordam berish va maslahatlar almashish.
2. Bir-birlarining g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonchni shakllantirish.
3. Birgalikda professional rivojlanishga e’tibor qaratish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘quvchilarga samarali yordam berish.

Umumiy maqsadlarga erishish

1

O‘quvchilarning o‘rganish natijalarini yaxshilash

O‘quvchilarning bilimlarini oshirish, o‘quv jarayonini yanada samarali qilish.

2

Ta’lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo‘shish

Ta’lim muassasasi obro‘sini oshirish, o‘quvchilar va ota-onalar uchun yanada yaxshi ta’lim muhitini yaratish.

Maktab rivojlanishiga ta’siri

1. O‘quvchilarning muvaffaqiyati
2. O‘qituvchilarning kasbiy rivoji
3. Maktabning obro‘si

O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish

Har bir o‘qituvchi, o‘zining pedagogik faoliyatini yanada yaxshilash, yangi metodlarni o‘zlashtirish va ta’lim sifatini oshirish yo‘lida o‘z ustida ishlashni doimiy ravishda davom ettirishi zarur.
Bunday ishlar faqat o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishga yordam beradi, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

O‘z ustida ishlashning ahamiyati

Malaka oshirish

O‘z ustida ishlash o‘qituvchining o‘z malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish yo'lida muhim qadamdir.

Innovatsion g‘oyalarni qo‘llash

Ta’limda yangi texnologiyalar va innovatsion pedagogik g‘oyalarni qo'llashga yordam beradi.

O‘z ustida ishlash ta’lim sifatini oshirishga qanday hissa qo‘shadi



Samarali ta’lim

O‘qituvchining o‘zini o‘zi o‘rganishi natijasida o‘quvchilarga samarali ta’lim berish mumkin.

O‘quvchilarni rivojlantirish

Ta’limning sifati o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimini yaxshilash

O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi butun ta'lim tizimini yaxshilashga olib keladi.

O‘z ustida ishlash jarayonida pedagoglarning professional rivojlanish mexanizmlari

Seminarlar va treninglar

Turli seminarlar va treninglarga qatnashish o‘qituvchilarga o‘zlarini yangi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi.

Pedagogik adabiyotlar

Pedagogik adabiyotlarni o‘qish o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

O‘quv guruhlari

O‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish imkonini beradigan o‘quv guruhlari o‘z ustida ishlashda yordam beradi.

O‘z ustida ishlash jarayonida xalqaro tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanish

1

Xorijiy o‘quv muassasalari bilan hamkorlik

Xorijiy o‘quv muassasalari bilan hamkorlik o‘qituvchilarga xalqaro tajribalarni o‘rganishga yordam beradi.

2

Xorijiy o‘quv dasturlaridan foydalanish

Xorijiy o‘quv dasturlaridan foydalanish o‘qituvchilarga yangi pedagogik usullarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

3

Xalqaro konferensiyalarda qatnashish

Xalqaro konferensiyalarda qatnashish o‘qituvchilarga zamonaviy ta’lim tendentsiyalari bilan tanishish imkonini beradi.



Oʻz ustida ishlash rejasini amalga oshirishda eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan asosiy yoʻnalishlar

Aniq maqsadlar

Oʻz ustida ishlash rejasining aniq va oʻlchanadigan maqsadlari bo'lishi kerak.

Strategiya

Rejaning amalga oshirilishi uchun aniq va samarali strategiya bo'lishi kerak.

Vaqt jadvali

Oʻz ustida ishlash rejasini amalga oshirish uchun aniq vaqt jadvali belgilash muhimdir.

Quyidagi mavzular bo‘yicha guruh ishi tayyorlang va uni namoyish qiling.

1

1-guruh uchun topshiriq

O‘zingiz o‘tkazgan darslardan birini tanlang va uning samaradorligini tahlil qiling. Dars jarayonidagi asosiy qadamlarni va o‘quvchilarning javoblarini baholang.Dars maqsadi va uning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi qanday bo‘ldi? Qaysi metodlar samarali bo‘ldi? Nima uchun?
O‘quvchilarning faoliyatini qanday baholadingiz? O‘zingizning o‘qitish usulingizda qanday kamchiliklarni aniqladingiz va ularni qanday tuzatish mumkin?

2

2-guruh uchun topshiriq

O‘z faoliyatingizni tahlil qilib, o‘zingiz uchun malaka oshirish rejasini tuzing. Bu reja quyidagi punktlarni o‘z ichiga olishi kerak:Qaysi sohalarda o‘z ustimda ishlashim kerakligini aniqlang. Yangi pedagogik metodlarni qanday o‘rganish kerakligini yozing.O‘quvchilar bilan samarali aloqani qanday mustahkamlash mumkinligini rejalashtiring. Malaka oshirish kurslari, seminarlar yoki treninglarda qatnashish imkoniyatlarini aniqlang.

3

3-guruh uchun topshiriq

O‘qituvchilar guruhida pedagogik hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli reja tuzing. Reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: Qisqa muddatda o‘qituvchilar o‘rtasida qanday hamkorlikni boshlash mumkin (masalan, o‘quvchilarning bilimini baholash, dars samaradorligini o‘rganish)? Uzoq muddatli hamkorlikning maqsadlari va vazifalari qanday bo‘ladi? Hamkorlikni baholash va takomillashtirish uchun qanday mezonlar va vositalardan foydalaniladi?

4

4-guruh uchun topshiriq

O‘zingizning pedagogik faoliyatingizni tahlil qiling. O‘z faoliyatingizni baholashda quyidagi savollarga javob bering:
O‘zingizni qaysi sohalarda kuchli va zaif deb hisoblaysiz? (Masalan, darsni tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashuv, pedagogik metodlar va boshqalar) O‘quvchilardan qanday fikr-mulohazalar oldingiz? Ularning o‘zlashtirish darajasi qanday? O‘quvchilarga ta'lim berishda qanday muammolarni duch keldingiz? Bu muammolarni qanday hal qilishni o‘yladingiz?

Refleksiya

"5x5 metod" (5 ta savolga 5 daqiqada javob berish)

- Darsda qanday yangi bilim oldim?
- Bu bilimni amaliyotda qanday qo'llashim mumkin?
- O'rganilgan materialni tushunish uchun qanday qo'shimcha resurslar kerak?
- Bu darsda eng ko'p qiyinchilikni qaysi qismda his qildim?
- Darsdan keyin qanday yangi savollar yuzaga keldi?

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

Dars kuzatish va tahlil qilish

Reja:

1. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad

2. Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi

3. Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar

Havoda burgutning ustiga minib, uning bo‘ynidan cho‘qilashga jur’at qila oladigan yagona qush qarg‘a ekan.

Lekin bu hamlaga burgut e’tibor bermas, qarg‘a bilan cho‘qilashib, maydalashib o‘tirmas ekan. Faqat qanotlarini dadil qoqib yana ham yuqoriga ko‘tarilishga harakat qilar ekan. U balanlagani sari qarg‘aning o‘pkasi siqib nafas olishi qiyinlashar, oxiri, diqqinafas bo‘lib qular ekan.

Siz ham har kim bilan talashib-tortishib asabingizni, vaqtingizni uvol qilmang...

Faqat yuqorilang!

Kuzatish – bu ma’lum bir reja bo‘yicha, aniq maqsad bilan olib boriladigan, kuzatilayotgan narsa haqida obyektiv ma’lumot beradigan tadqiqot usuli.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Darslarni kuzatish va tahlil qilishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim

01

O‘qituvchi ishiga baho berish

02

Dars jarayonining dars o‘tish bosqichlariga mosligini kuzatish

03

O‘qituvchiga amaliy-metodik yordamlar berilishiga erishish

04

Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish

05

Xulosalash

Dars tahlili turlari



Didaktik tahlil

Uslubiy tahlil

Metodologik tahlil

Psixologik tahlil

Pedagogik tahlil

DIDAKTIK TAHLIL

Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo’nalishi, ko’rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlar-ning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi

Uslubiy tahlil

O‘rganilayotgan mavzuga dasturda mo’ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, o‘quvchilarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, o’ylashga, izlanishga majbur etishi, o‘qituvchi sifatidagi tajribalari qaysi darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi

Metodologik tahlil

Ta’lim yo‘nalishidagi hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go‘zal durdonalari, shu soha bo‘yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o‘zgarishlarning mashg‘ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinadi

Psixologik tahlil

O‘quvchilarning kayfiyati, ularning sog‘ligi, jamoadagi sog‘lom muhit, xushyorligi fanga bo‘lgan qiziqishlari, dars berayotgan o‘qituvchisiga munosabati, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, o‘qituvchining o‘zini boshqara olishi inobatga olinadi

Psixologik tahlil

O‘quvchilarning kayfiyati, ularning sog‘ligi, jamoadagi sog‘lom muhit, xushyorligi fanga bo‘lgan qiziqishlari, dars berayotgan o‘qituvchisiga munosabati, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, o‘qituvchining o‘zini boshqara olishi inobatga olinadi

Pedagogik tahlil

O‘qituvchining tashqi qiyofasi

O‘quvchilar bilan til topa olish mahorati

Nutq madaniyati

Madaniyati, odobi

Ijodkorlik qobiliyati

“Olimpiada” refleksiyasi



XULOSA

Faol ishtirokingiz uchun rahmat!